

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”  
Filologiyasi fakulteti  
dekani \_\_\_\_\_  
“\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2020-yil

5120100 – filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim  
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr  
darajasini olish uchun

IV bosqich 48-16-guruh talabasi

**ORZUMUROD NURMATOVning**

**“RAUF PARFI VA SHAVKAT RAHMON IJODIDA TURKISTON  
MAVZUSI”  
nomli**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

**f.f.n., dots. O.Fayzullayeva**

**Guliston – 2020**

<b>KIRISH.....</b>	<b>3 – 6</b>
<b>I BOB. SHE’RIYATDA BIR MAVZUGA TURFA XIL YONDASHUV</b>	
1.1. Rauf Parfi va Shavkat Rahmon ijodida Turkiston mavzusining tasvirlanishi .....	7 - 19
1.2. Turkiston mavzusi ifodasida davriylik – istiqlolgacha va undan keyingi davr.....	20 – 30
<b>II. BOB.TURKISTON MAVZUSI IFODASIDA KO‘LAMDORLIK VA BADIY TASVIR VOSITALARINING QO‘LLANILISHI.</b>	
2.1. Turkiston mavzusidagi she’rlarda shoir shaxsiyatining lirik qarhamon bilan uyg‘unligi.....	31 - 39
2.2. Turkiston mavusi ifodasida poetik obrazlar, tasvir vositalarining qo‘llanilishi.....	40 - 47
2.3. Hozirgi o‘zbek she’riyatida Turkiston mavzusining davom ettirilishi, ko‘lamdorligi .....	48 - 54
<b>XULOSA.....</b>	<b>- 55 - 56</b>
<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>57 - 58</b>

## KIRISH

Bizga ma'lumki, yurtimizda bugungi kunda ijtimoiy-siyosiy, ma'daniy hayotdagi o'zgarishlar milliy adabiyotimiz oldidagi katta vazifalarni qanchalik muhim ekanligini belgilab beradi, bir qator vazifalar yuklaydi. Adabiyotning o'rni, qolaversa, she'riyat o'rni, poetik mukammalligi, u tashib kelyotgan g'oyalar muhimligi, uzoq aslik boy adabiy an'analar va jahon adabiyoti yutuqlaridan ham foydalanish bugungi va ertangi kun ijodiyoti oldidagi ulkan vazifalardan biri ekan, "Har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turki beradi, ma'naviyatning shakllanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi"<sup>1</sup>

Adabiyot ham ana shunday kuchga ega, uning ta'sir doirasi keng, uning aytgan gaplari yurak-yuraklarga kirib boradi. Zero, "Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi"

Yuqorida aytilganidek, adabiyotning yashashi qanchalik muhim ekan, she'riyat bu maydon ichida katta bir maydon. Mustaqillikdan avval va keyin ham she'riyatda turli mavzular bo'lgan va hamon shunday. Ana shu maydon ichida o'z erkini yo'qotmagan, o'z so'ziga, yo'liga ega bo'lgan ijodkorlardan ustoz Rauf Parfi va Shavkat Rahmonlar Erk, Vatan, Inson, Muhabbat, Xalq, Jasorat, Kurash, Tarix, Ozodlik, Ruhiyat kabi eng ulkan turuvchi tuyg'ular tarannumi ijodida muhim o'rin olgan. Mana shu tuyg'ular to'la ijod o'zbek she'riyatida o'chmas iz qoldirdi va keying davr ijodkorlari uchun ham ijod maktabi bo'lib xizmat qildi, bo'lib kelmoqda. Har bir she'rida Vatan ozodligi, qalb erkinligi, tarix haqiqatini, ko'ngil yuksakliklarini go'zal chizgilar bilan chizib bera olish she'rxonga ajoyib taassurot beradi, uni azoblantiradi, ruhlantiradi, xulosalantiradi.

Bu esa she'rning qadrini yana-da oshirib beradi, she'riyatda o'z o'chmas o'rni bor ekanligini ko'rsatib beradi, kerakli misollar bilan isbotlaydi. Insonga ta'sir qilishi tezlashadi.

**Mavzuning dolzarbliji:** 1847-yildan boshlab 1885-yillar davomida ozod Turkiston ruslar tomonidan bosib olindi, talandi. Lekin xalq bunga quriq qarab turmadi, ko'nikib qolgani yo'q. Ana shu jarayon ijodda qay darajada o'z o'rniga ega bo'lganligini o'rganish va bilish. Turkistonni birlashtirish, uni ozod qilish harakati, orzusi ijodga qanday ta'sir qilib qay darajada yoritilganini o'rganish. Bunga munosabat qanday bo'lgan, odamlar qanday qabul qilishgan, hukumat qanday

---

<sup>1</sup> Karimov I.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B.41.

qarshilagan, bu kuylash keyingi mustaqil bo‘lgandan keyin qay darajada bo‘lganligini o‘rganish.

Qolaversa, Rauf Parfi va Shavkat Rahmon ijodida bu mavzu qanday yuksaklik aro tarannum etilgan, qanday og‘riq ekanligi chizib bergenligini tasavvur qilishda bizga yordam berishi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari:** Bu ishning maqsadi ikki ijodkorda bu mavzu qay darajada qanday chizmalarda tasvirlab, ochib berilgan, yurak qoni bilan chizilgan Vatan go‘zalligi va uning armoni tarannumi, og‘rig‘ini ko‘rsatib aytib berish. Mustaqillikkacha qaysi ohangda, qanday armon, qanday og‘riq bilan kuylanganligi va bugun qay darajada ekanligini ko‘rsatib berish. Rauf Parfi va Shavkat Rahmonlar ijodida TURKISTON qanday o‘rin egallaganini ko‘rsatib berish.

#### **Bitiruv malakaviy ishning vazifasi:**

- Bitiruv malakaviy ishining vazifasi umumiy Vatan bo‘lgan Turkiston ozodligi uchun - Rauf Parfi va Shavkat Rahmon ijodida qanday o‘rin egallaganini;
- Mustaqillikdan avval va keyin bu mavzuning qanday vazifa bajarganligini, ifodalagan g‘oyasi haqida;
- Bu ijodkorlarning o‘tkir, haqiqat to‘la, bo‘yunmas ijodida Turkiston mavzusini hayotiga chambarchas bog‘lanib qo‘shilib ketganligini;
- Bu mavzu – Turkiston mavzusini yoritishda ustoz ijodkorlarning so‘z qo‘llash mahoratini;
- Turkiston mavzusining ruhiy yuksaklil, qalb erki, o‘tmish va kelajak yo‘lidagi o‘chmas o‘rnini ;
- Rauf Parfi va Shavkat Rahmon ijodida bu mavzuning bugungi kun ijodiga qanday ta’sir qiganini ko‘rsatib berish;
- Bu mavzuda shoir o‘zligi masalasiga e’tibor qaratish;
- Turkiston mavzusida yozilgan she’rlarning badiiy-estitik xuxisatlarini ko‘rib chiqishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:** O‘zbek she’riyatida, qolaversa, turk dunyosi she’riyatida Rauf Parfi va Shavkat Rahmon ijodidagi bu mavzuning o‘rnini ko‘rsatilishi.

Turkiston mavzusini yoritib berishdagi poetik xuxusiyatlar, tasvir vositalari, sa’natlarning qo‘llanilishi, kompozitsion strukturasi masalalari, ramz, istiora, oksimoronlar go‘zallifini yoritib berilishi.

Turkiy xalqlarning umumiy Vatani bo‘lgan Turkiston mavzusiga adabiyot, jamiyat, davlat, dunyo qanday munosabatda bo‘lganligini ko‘rsatish.

Rauf Parfi ijodidagi oksimoronlar go‘zalligi, ramzlar xilma-xilligi va Shavkat Rahmon she’rlaridagi o‘tkirlik, rubobiy taronalar Vatan – Turkiston ni kuylashda qay-

darajada ishtirok etganini ochib berish bitiruv malakaviy ishning ahamiyatini va ilmiyligini belgilaydi.

**Bitiruv malakaviy ishning obyekti:** Bu ishda oldimizga qo‘ygan maqsadni amalga oshirishda Muataqillikdan avvalgi va keyingi she’riyatda Parfi Parfi va Shavkat Rahmon ijodini tahlil qilish, ushbu zabardast ustozlar ijododa eng yuqori o‘rinda, eng og‘riqli tasvirlarda turgan mavzu – hayot mazmuni – qalb og‘rig‘i – taqdir chizig‘i – TURKISTON mavzusi o‘rganiladi. Bu mavzu ikki ustoz ijodida qanday o‘rin egallagani, ijod olamiga qanday ta’sir etgani obyekti bo‘lib keladi.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati:** Ish mustaqillikdan avvalgi va keyingi o‘zbek she’riyatida Turkiston mavzusining ahamiyati, ta’siri va qay darajada yoritilganligi, qolaversa, turk dunyosi she’riyatidagi o‘rniga egaligini ko‘rsatish,

Parfi Parfi va Shavkat Rahmon ijodining bu yo‘lda eng katta rol o‘ynaganini ko‘rsatish maqsad qilib olinganligi bilan ahamiyatli.

Bitiruv malakaviy ishidan quyidagi masalalarni ro‘yobga chiqarishda foydalanish mumkin bo‘ladi:

- Mustaqillikdan avval keyin bu mavzuga qanday yondashilganini yoritib berishda;
- O‘zbek she’riyatida Turkiston mavzusining ahamiyatini ko‘rsatishda;
- Kollej, litsey kabi ilm dargohlarida Parfi Parfi va Shavkat Rahmon ijodining eng yuksak mavzusi qaysi ekanligini ochib berishda.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi:** Bitiruv malakaviy ish kirish, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va 2 bobdan iborat.

## **1- BOB. SHE'RIYATDA BIR MAVZUGA TURFA XIL YONDASHUV**

### **1.1. Rauf Parfi va Shavkat Rahmon ijodida Turkiston mavzusining tasvirlanishi**

Adabiyot ikki ruhning orasida bir tasodif no'qtasidir, degan edi Charles de Boses. Darhaqiqat, bu bir-biridan farq qiluvchi ruhni bir joyga keltirib berishga va anglatishga yordam beradigan no'qta adabiyot ekan, ijod olamida ijodkor odam emas, u endi insondan farq qiladi, u mo'jiza yarata oladi, unda So'z bor, endi u yuraklarni boshqara oladi.Biz kutmagan satrlar orqali aytolmay turgan, ifodasini topolmay turga tuyg'uni ayta oladi.

Ana shu maydon ichida katta bir maydon She'riyat olamida o'z uslubiga, yo'liga, o'z ovoziga ega - yaralari ochiq, dardli, parfiyona yo'li va raufona ovozli ruh rassomi, ulkan mungni olib kirgan shoir hamda "mohiyatan har narsadan avval Haqiqat ko'zlariga tik qarash she'riyati"[Ulug'bek Hamdam.Shoir – tuzalmas haqiqatparast] zarb she'riyati, murosasiz she'riyat yaratgan, rubobiy, zulfiqor she'rlar yozgan ikki ijodkor Rauf Parfi va Shavkat Rahmondir.

She'riyat Alloh odamni yer uchun yaratgani kabi qadimiydir. Yorug' dunyoga kelgan inson bor ekan, inson bo'lib tug'ilgan ekan — Inson haqlari, inson huquqi bordir. Inson Huquqi — She'riyat huquqi.

Inson va Tabiat uyg'unligi abadiy, tabiat tartiboti o'zgarmas, ammo inson tabiatini o'zgaruvchandir. Muvozanat buzilgan joyda jaholatning qora quyoshi yonib fikr olamini zulmatga chulg'aydi, qonga bulg'aydi. Muborak uyg'unlik yo'lida jafo chekkanlarning karvonboshilari shoirlardir, ehtimol.

She'riyat cheksizlikdir- ammo she'riyatning osmoniga boqib cheksizlikning ham cheki bor, deb o'ylaysiz. She'riyat insonning ilkin nafasidir, poyonsiz nafasning moddiylikka aylanishidir, balki.

Yuqoridagi fikrlar qanchalik haqiqat ekanini shoir o'z ijodi misolida ko'rsatib bergen, butun borlig'i bilan ijod qilgan, haqiqat ko'ziga tik qarab, haq so'zni ayta olgan, inson Erki qanchalar muhim ekanligini isbotlagan va she'rlarida ijodining eng yuksak cho'qqisi, eng go'zal va og'riqli ohangli mazvu – TURKISTON ni kuylab o'tdi, unga talpindi, uni sog'indi, og'riqlarini his qildi.Butun ijodi bilan, butun o'y-xayollarini bilan , gullagan qayg'ulari bilan, ulkan dardlari bilan shu Vatan sari kurashdilar. "Senga yetib bormoqlik uchun, uzun umrim yetmasa kerak", (Sh.R) deya dil izhor qildi, "Vujudimning har bir hujayrasida so'zlarning sodiq qo'shini — Turkiston, Turkiston, Turkiston — Turkiyning dunyoviy qo'shig'i. Yo'q, hali yo'q, shoir ekvator bo'ylab sening yuragingdan otilgan o'q" deya og'riq qoplagan hislarini yurakdan chiqardi.

Zero, qalb faqat turkiylar yurti – Turkiston tomon talpinadi, u uchun uradi, unga yetishish yo‘li uzunligini biladi: O, sabr daraxti, qutlug‘ Turkiston, Naqadar uzundir, og‘irdir bu yo‘l...(R.P)

Rauf Parfi bu uzun va ulug‘ yo‘l sari otlanadi, bu sabr daraxti, bunga yetish uchun xalq uyg‘onishi kerak, qalbni qo‘zg‘atishi kerak, bir paytlar dunyo tamadduniga hissa qo‘sghan xalq bunday uxlab yotishi mumkin emas deydi. Turkiylar birlashsagina kuch, ozod Turkiston iymon chirog‘i – ko‘zlangan orzu. Chunki, sharafiga ta’zim ila Iymonidir turkning Turkiston degan edi hazrat Ahmad Yassaviy ham.Demakki, shoir uchun ham iymonining bir bo‘lagi bo‘lgan Vatan birligi va ozodligi hayoti bilan barobar va bog‘langan bo‘ladi.

Quyidagi she’rida esa:

Izn ber, hayqiray iymonim haqqi  
Ko‘klarga termulib solayin uvvos.  
Men faqat Turkiston atalgan yorqin  
Bir butun yurtimni istayman xolos. <sup>2</sup> (“Yurak” )

deya yurakdan og‘riq to‘la uvvos solishni, orzusidagi Vatanimni bir butun ko‘rishni xohlayman demoqda. Ruslar bo‘lib tashlagan orzusining yuksalishini, birlashishini istaydi.Ko‘klarga termulib so‘rash, kimningdir ko‘ziga termulib emas – uni kimdir emas, faqat ko‘kdagi zotgina bir umrlik, haqiqiy o‘ziniki qilib berishi mumkin. Bir pytlar yorqin bo‘lgan Turkiston tuproqlari aro yovning manfur qo‘llari ketishini faqat ko‘klardan uvvos solib, hayqirib so‘ramoqchi va bu hayqirishda isyon emas iymonim haqqi demoqda.

Yuqoridagi she’rda qalb istagi tasvirlansa, quyidagi “Ona Turkiston” she’rida esa tashbexning go‘zal na’munasini keltiradi:

Oh, Turkiston eng achchiq bo‘sa  
Kabi lablarimga urinding.

Umuman, Rauf Parfi she’rlarida talantining to‘qson foizi farosat, ohang, andoza, so‘z tuyg‘usi bo‘lib bu to‘rt narsa bilan go‘zal poetika yaratadi.Bu metaforik raufona she’riyat o‘ylashga majbur qiladi, hayajonlantiradi, ruhlantiradi, og‘riq beradi.“Rauf Parfi she’rlari chuqur ruhiy kechinmalar asosiga qurilgan. Murakkab assotsiatsiyalar orqali fikrlash g‘oyani bo‘rttirib ko‘rsatishga olib keladi.”<sup>2</sup>

Quyida ana shunday she’rlaridan birini ko‘rib chiqamiz:

---

<sup>2</sup> R.Parfi. Sakina. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 2013. -B.132.

Uyg‘onar Turkiston, uyg‘onar Dunyo,  
 Porloq umidlarga to‘lib kun botar.  
 Baxt singari olis yulduzlar go‘yo  
 Azal go‘zallikning sha’mini yoqar.<sup>3</sup>

Dunyo tamadduniga tamal toshlarini qalagan Turklar – Turkiston diyorida unitilmas lavhalar joylagan, yorqin o‘rin naqshlagan, o‘z jasur sarkardalari bilan ulkan davlatlar qurgan xalqdir. She’rda aytimoqdaki, Turkiston uyg‘onar – dunyo uyg‘onar yana, yana avvalgidek dunyoga daholarni tarbiyalab bergen, arslonyurak botirlarni ulg‘aytirib bergen zamin qayta uyg‘onadi va dunyo ham qaytadan uyg‘onadi, rivojlanadi, bir paytlar yovlar tomonidan bo‘lib tashlangan vatanni taniydi, shunda porloq umidlarga to‘lib kun botar – bu tun kulga to‘lgan osmonlar bilan o‘ralmagan bo‘ladi va bunda baxtga o‘shash azaliy , hech eskirmas, zanglamas go‘zallikning shamini yoqadi – yulduzlar go‘zallik shamlari.

Turkistonning uyonishi demak dunyoning uyonishi demakdir, yulduzlarning, go‘zallik shamlarining yoqilishi, lirik qahramon ko‘nglining osmon kabi yorishishi kabi assotsiativ tasvir asosida qurilgan mazkur sonetda makon ona Turkiston, zamon esa keljak.Turkiston mavzusining yoritilishida Rauf Parfi oksimoronlardan, ramlardan va tazod sanatli metaforalardan juda ko‘p ajoyib tarzda qo‘llaydi.

She’rning tasvir markazida ona vatan va uning amalga oshishi muqarrar bo‘lgan nurli istiqboli, nozik sezimlar ila tasvir etilgan.

Ko‘nglim osmon yanglig‘, yorishdi osmon,  
 Kelur ot o‘ynatib Xaloskor Sarboz.  
 Yorqin sahrlarda Sen, Ruhim, omon  
 Yuksak-yuksaklarga qilaber parvoz.

Shoir mazkur sonetning nihoyalanishida Samo, Zamin, Inson kabi lirik obrazlarga:gullar, chechaklarga to‘lsin oydin yo‘l, Nafosatga axir chidamli odam, deya murojaat qiladiki, bunda badiiy adabiyotning eng oliy vazifalaridan biri bo‘lgan ezgulikni tarannum etish o‘z aksini topgan.Shoir dunyoning ezgulikka burkanishini

<sup>3</sup> R.Parfi. . Sakina. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 2013. -B.220.

Obidaxon Fayzullayeva.Hozirgi o‘zbek she’riyatida sonnet. –T.:Turon zamin ziyo, 2014. – B.26

<sup>3</sup>. Парфи. Р. Сўнги видо. – Т.: Алишер навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутбхонаси нашриёти. 2006. 14-бет.

faqat o‘zi va atrofdagilardan so‘ramaydi, Samo deya barcha yaratguvchilarning sohibi bolgan Alloh taolloga, Zamin deya ona sayyoraga, Inson deya maxluqotlarning gultojiga murojaat qiladi va shodligi kam-u, g‘ami ko‘p bo‘lgan bu dunyoda bani basharga nafosat, oydin yo‘l tilaydi, qalblarning ezgulik chashmasini suvidan bahramand bo‘lishni xohlaydi.

Shoir ko‘ngli osmon, chunki Turkiston uyg‘onmoqda, ko‘nglim osmon yanglig‘ deya osmon kabi keng va yorishganini, sababi osmonda go‘zallik shamini yoqadigan yulduzlar bor, endi esa ot o‘ynatib xaloskor Sarboz kelur!

Ming yillardan beri uyquga cho‘mgan Turkistonni uyg‘otish, oldga boshlash uchun sarboz, jangchi kelur.

Ey Samo, ey Zamin, ey Inson — qodir,  
Gullar, chechaklarga to‘lsin oydin yo‘l,  
Nafosatga axir chidamli odam.  
Bu kun Sen boshqasan, Dunyo boshqadir.  
Sen-da Hur tug‘ilding. Bir so‘zla. Bir o‘l,  
Va bilgil qaylarda sarsondir Alam...

Sonetning nihoyasida lirik zamon vazifasini shoir yashagan davr bajargan. Zamonni makonsiz tasavvur qila olmaganimizdek, makon sifatida ona vatan gavdalaniadi. “Sen- da hur tug‘ilding. Bir so‘zla. Bir o‘l va bilgil qaylarda sarsondir Alam”deya hayqiradi.Bu misralarida R.Parfi Tamaddun qaysi ko‘rinishda bo‘lishidan qatiy nazar, zamin-u zamonni o‘zgartirishi shu bilan birgalikda rivoj topishi bilan birga, uni anglovchi, sezuvchi va his qiluvchi insonni ham kamol topishi muqarrarligini takidlaydi va Xuddi XX asrning birinchi choragida yashab ijod Cho‘lponning kishan kiyma, bo‘yin egmaki, sen ham hur tug‘ilgansan misralaridan badiiy estetik bahra olganligini yashirib o‘tirmaydi.Va “ Bir so‘zla” deya ichingdagini ayt demoqda.

Mazkur sonetning yaratilish davri XX asrning oltmishinchı yillariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda xalq dushmani deya etirof etilgan ijodkorlarning asarlaridan ijodiy bahra olish, ularning uslubiga ergashib she‘r bitish o‘ziga xos jasorat hisoblanadi. She‘rning “Kelin ot o‘ynatib Xaloskor sarboz” misrasida iste’dodli, mard, jasur xalq hech qachon beega qolmasligini o‘ziga xos shoirona mahorat bilan tasvir etilgan.Zero, “ Sen-da Hur tug‘ilding. Bir so‘zla. Bir o‘l...”

“Abdurauf Fitrat” she’rida Fitratning so‘zlarini epigraf qilib olgan:

Nega seni chulg‘ab oldi buncha tikonlar  
Nega chiqdi yuragingdan yuzga bu qonlar?

Yurakdan yuzga tepchib chiqqan bu qonlar natijasi bo‘lmish marsiya kafan tutgan mudhish qaro tun tasviri bilan boshlanadi:

Ajab mudhish qaro tun kafan tutar,  
 Bir zamon tinmaydir, izg‘irar shamol.  
 Daryo ko‘piradir, odamni yutar,  
 Ul go‘zaldir, ul irginchdir, ul — xayol.

Daryoni ko‘pirtirgan yomg‘ir riyozat qamchisi kabi savalaydi buzg‘un tanizorni. Siniq nay firoq nag‘masini chaladi. Isrofning ichidan silqigan bu tanish navodan riyolar, rishvatlar va ...zaharli havo taraladi. Og‘ir azon tovushi keladi. Muazzinning tongni uyg‘otguchi horg‘in azoni bomdod namozi avvalida emas, shoirning qismati kabi qora tun yarmida eshitiladi:

Azon tovushini tinglayman — og‘ir.  
 Turkiston. Qora tun. Shamol va yomg‘ir.

Ikki dunyo — shamol va yomg‘ir. She’r boshlang‘ichidagi bir zamon tinmagan izg‘irin shamol yomg‘irni yetaklaydi. Yomg‘ir, sel... daryoga aylangan dunyo ko‘piradi, odamlarni yutadi. Ko‘pirishi na-da go‘zal, odamlarni o‘kirib yutishi — na-da irkinch. Yomg‘ir avjiga mingandan riyozat qamchisi kabi savaydir tanizorimni. Tanizor — vatan, o‘z o‘g‘illarini yutayotgan yurt. U vatanzorida riyolar, rishvatlar ko‘rgan. Tanalarning ...zori, gul-chechaklarning emas, o‘limlarning ... Bunda firoqning nag‘masin chalar nay siniq. Isrofning ichindan silhigan navo tog‘lardan tiniq taraladi, xuddi azon tovushi kabi. Biroq qora tun — Turkiston....

Ikkinchi sonetda mudhish qora tunni yoritmoqchi bo‘lganday Oy urinadi:

Aytadir Oy dardin bulut qo‘ynida,  
 Bulutlar hurpaygan, na-da qoradir.  
 Dorlari muhaqqaq azlom bo‘ynida,  
 Unutilgan, xo‘rlangan xalq boradir.

Niyatiga yetmagan Oy bulut qo‘ynida dardin aytmoqda.Oyning dardi zimiston tunni yoritolmaganida emas, balki dorga tortilishi muhaqqaq bo‘lgan, azlom — zulmlarni bo‘yniga olgan, unutilgan, xo‘rlangan qora xalqning kelajak shaklidagi mavhumlik tomon yo‘liga yorug‘lik bera olmaganida.U karvonga qo‘sila olmagan bo‘taloqday urinadi, surinadi, goq paydo bo‘ladi, goq g‘oyib — alam ortgan karvon borar mung‘ayib:

Fasihalar ko‘rinar sochlari olov,  
Ivirsir gumrohlar ko‘zi — qo‘li qon.

Soch qaro tun edi she’riyatda, Rauf Parfi uni olov shaklida ko‘radi. Tun qoraligini yoqmoqchi bo‘lgan olovday. Amalning shamlari so‘ngan, tilakning yulduzi to‘ngan bir vziyatda tasvirlanadili, bunda uni chorlovchi hech o‘chmas yolg‘iz olovday yalov lipillaydi, mukarram yalov:

Turkiston, Turkiston, mukarram yalov...  
Rad etdimmi seni, qoldimmi bejon?  
Amalim shamlari so‘ndimi, Ona!  
Tilagim yulduzi to‘ndimi, Ona?

Bilamizki, Fitrat ona Turkistonni bir mungli xotin qiyofasida ko‘rgandi, Rauf Parfi esa amalim shamlari so‘ndimi, ona deya murojaat qiladi, undan yordam so‘ragan kuyi, chunki, ona uni ko‘nglini ko‘ndira, yupata, og‘riqlariga biroz malham bo‘lishi mumkin. Faqatgina u unga yo‘l ko‘rsata oladi. U kechira oladi – agarda lirik qahramon aytayotganidek rad etgan bo‘lsa ham, yana quchog‘iga oladi Ona Turkiston kabi.

Uchinchi sonetda ayriliq (Turkistondan) shamshiri boshida singan, borlig‘i chopilgan, o‘z qonini o‘zi ichgan, dunyo tarixini o‘qib o‘kingan shoir Turkistonni uyg‘otmoqchi bo‘ladi. Bir paytlar shonli tarixga ega bo‘lgan, ulug‘ tog‘lari – botir yigitlari bo‘lgan o‘lka bugun har nega zor va o‘z yerida zor:

Rizqimizni axir kimlarga berdik,  
Axir, odam edik, muhtij, notavon.  
Ular xirmon-xirmon, biz nushqurt terdik,  
Faryodimiz yetib bormas hech qachon. . . .

Tun ortidan tong keladiganday, shoir na’rasidan mudroq Turkiston uyg‘onadiganday. Biroq ohu faryodimiz arshga yetib bormadi, yo‘q, shoir Rauf Parfi yozgancha, «yetib bormas hech qachon». Tun ortidan kelayotgan subhi sodiq (sadoqatli tong) emas, subhi yolg‘on edi. Nushqurt singari xirmon-xirmon tergan rizqimizni kimlarga berdik, o‘zimiz muhtoj va notavon qoldik. Falokat ustiga falokat tutdi. «Intiqom, intiqom» deb ortidan yugurganimiz bilan Turkiston o‘tdi. Razolat qabrida bosh egib turdik, Temur sag‘anasida singan O‘zbekday. Cho‘ng tog‘larni, dong‘li Turonni uyg‘otmoqchi bo‘ldik, ammo

Ay, ulug‘ tog‘larim, ay shonli Turon,

Tokay uyg‘onmassan, ay qonli Turon!

Turonzamin tikonlarga chulg‘andi, Turkiston emas, zorlar makoni bo‘ldi. Yurakdag'i bu qonlar yuzga tepchib chiqdi, olov sochlar qora mash’alaga aylandi. Qora tunni yorituvchi emas, yoritmoychi emas, balki battar qoraytiruvchi qop-qora (olovday) mash’ala. Shunday qorong‘ulik zimistonida birdan bir oq narsa ko‘rindi — Kafan. Yana ilk satr yodga keladi: mudhish hora tun kafan tutar!..

Uch sonetdan iborat marsiya shu bilan bitadi. She’rda turklarning asl vatani Turkistonne uyg‘otmoqchi bo‘ldig-u umrimiz quruq gaplar bilan o‘tdi, yov qo‘lida talangan zamin bugun o‘sha jarohatlardan qutilmasdan yana yangi azoblar yutmoqda, turli hududlarga bo‘linib ketgan yagona maskan tupoqlarida hali ham yov oyoqlari izg‘ib yuribdi, deya endi najot yo‘qmi, endi o‘tdimi deb Ollohdan so‘raydi.

Vahshiy dunyo, qonxo‘r dunyo quturdi,  
Inson faryodiga to‘ldi koinot.  
Nabilar, dohiylar, shoirlar turdi,  
Chora, chora, deya so‘rdilar najot...  
Allohim, bilursan qay sori ketdim,  
Allohim, men o‘ldim... Men Senga yetdim...

Bu she’rda tasvirlangan lirik qahramon qay tarzda tasvirlanganini uning ruhiyatidagi foje holat tasviriga katta bir yordam beradi, oydinlashtiradi.”Qora tun, arvoхlar, ko‘zi-qo‘li qon” misrasida arvoхlar ramz bo‘lib, fosihlarning ifodasi o‘laroq kelmoqda bu yerda.Bungan ko‘rinadiki, ramziy ifodalar she’rning go‘zalligini oshirgan.

“Ay, ulug‘ tog‘larim, ay shonli Turon” misrasida kelgan ulug‘ tog‘lar tasviri – Turkistonga suyanch bo‘lgan o‘z o‘g‘lonlari ramzi bo‘lib kelyapti.

Shoir she’riyatida ramz-obrazlar, metaforalar, kontrast holatlar, istioralar shaklida o‘z taxayyuli, dard chizgilari, og‘riqlari namoyon bo‘ladi va bu she’r yuksakligini, ohorini oshiradi.

“qaro tun”, ”shamol”, ”irganch xayol”, ”Firavnalar”, ”zaharli havo”, ”alam ortgan karvon”, ”ulug‘ tog‘lar” kabi razlar birin-ketin kelib she’rning go‘zalligini ottirib boradi, takrorlanmas metaforalar orqali she’r dardini oshiradi.

...egilgan narsalar tegar g‘ashimga...  
egilgan boshlarni

qilichlar kessin.<sup>4</sup>

Ruhi o‘tkir, obrazlari, so‘zlari, tashbehlari ham shunday keskir va qontalash shoir Shavkat Rahmon she’riyatida ham Turkiston mavzusiga eng katta va zalvorli o‘rin berilgan.

Tavirlarda turkona nigohlarga ega shoirning yurak zarblari, zulfiqor ruhi, jilovsiz ehtiroslari takrorlanmas, o‘zigagina xos metaforalar, shafqatsiz o‘xshatishlari aks etgan. She’riyatidagi yovqurlik, ruhiy yuksaklik, shiddat she’rlari mohiyatiga singib ketgan.Turkiston mavzusida ham qalban his qilish mumkin bo‘lgan dardlar, og‘riqlar bor.

Shavkat Rahmon degan bir o‘jar shoir,  
bir kuni qaytadan yaraladimi?  
Hayotim ma’nisin juda ko‘p o‘ylab,  
sayladim so‘zlarning saralarini.  
Har bir so‘z yuz so‘zning o‘rnini bosar  
Vatan, Xalq, Jasorat, Kurash, Ozodlik...<sup>1</sup>

Albatta, har bir davr o‘zining asl insonlarini tarbiyalab beradi, qaysidir jihat bilan avvalgisidan ajralib turadi. O‘rnatilgan istibdod yaralarini anglagan ijodkor borki, unga qarshi turdi, Vatanni kuyladi.Rauf Parfi va Shavkat Rahmon ijodida bu Erk tuyg‘usi, Vatan ruhi, Turkiston birligi orzusi yuksak cho‘qqida.El dardini ustuxonigacha singdirgan ijodkorlar edi.Va biladiki, bu zaminni oyoqlari ostida tutgan yov bir kun yo‘q bo‘ladi, Ozodlik keladi, ruslarning bu yolg‘oni fosh bo‘ladi.

“Surilar bu temir pardalar,  
Istibdodning tug‘lari qular” (Sh.Rahmon)

Buyuk Turon kengliklarida  
ko‘milib yotibdi hadsiz xazina,  
ko‘milib yotibdi yillar qa’rida  
xazinaga tutash sanoqsiz zina...  
Adashdim,  
ruhimda parokandalik  
ko‘p sirli asrlar shabistonida

---

<sup>4</sup> Sh.Rahmon. Saylanma. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyyati, 1997. – B.195.

kezganday bo‘laman aziz bitiklar,  
donishmand ellarning qabristonida...<sup>5</sup>

Bizga ma’lum, Vatan tushunchasi, anglami kuni kechaga qadar shu qadar mavhum ediki, uning sarhadini belgilab olish uchun hatto shoirlar ham jug‘rofiy atamalarni qalashtirishdan nariga o‘tmasdilar. Asl Vatan tushunchasi o‘lib bormoqda edi...

Shavkat Rahmon esa - buyuk Turon kengliklarida - dafn etilgan had-hisobsiz milliy «xazina»larni qidiradi. Lekin ular shunchalik chuqurlikka dafn etilganligi, son-sanoqsiz zinalar bilan unga tomon tushish mumkinligi aytilmoqda. Bu xazina – parokanda qilib tashlangan Turonning shonli o‘tmishi, uning yalovbardor, tug‘bardor xalqi, dunyo xalqlariga saboq bergan donishmandlari, ma’rifati va madaniyati. O‘tmishga agar tarix nuqtai nazaridan baho beradigan bo‘lsak, juda nisbiy tushuncha. Va biz uni oddiy qog‘ozlarga qayd qilingan«material» sifatida qabul qilishga o‘rganib qolganmiz. Oddiy so‘z va oddiy mavzu sifatida... Aslida, u jonli vujud bo‘lib, hali-hanuz qoni silqib turibdi. Uni na yashirib bo‘ladi, na yo‘qotib bo‘ladi, u yuraklarga azob beradi. Tanangizdan silqib oqib turgan qonga e’tiborsiz bo‘lishingiz mumkinmi?

Xuddi shu jarohatini unutgan xalqlar bora-bora o‘z vujudi qismidan ayrıladı, ya’ni, nihoyat, uch iriy boshlaydi va natijada kesib tashlanadi. Tarixsizlik, xotirasizlik, erksizlik shu nuqtadan boshlanadi. Shavkat Rahmon bizni xuddi moziyga befarqlik va loqaydlik tufayli kelib chiqqan kulfatlardan ogoh etadi. Ularni uyg‘onishga chorlaydi. Xalqlar injularni o‘tmishlaridan zarralab-zarralab tergan paytida biz nogoh shamolda ochilib qolgan qancha javohirni qaytadan ko‘mdik.

Bu qullik belgisi  
yoki ko‘rlikmi,  
yo bandi bo‘ldikmi hirs, tamalarga,  
o‘zgaga tutdikmi javhar o‘zlikni,  
qo‘rqdikmi odamxo‘r mahkamalardan?!

Kuchli xalqlar o‘z tarixlari va tarixiy xotiralari tufayli insoniyat taraqqiyotining baland zinalariga chiqib oldilar. Yana-da yuksaldilar. Ular o‘zinikini birovga sadaqa qilmadilar, birovnikini o‘zniki qilmadilar. Axir, o‘g‘irlangan, berilgan soxta shon-

---

<sup>5</sup> Sh.Rahmon. Yurak qirralari. – T.:Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 1981. – B.65.

<sup>2</sup>. Sh.Rahmon. Saylanma. – T.: “Sharq” nashriyoti, 1997. – B.145.

<sup>3</sup>.O‘sha kitob. – B.188.

shuhrat bilan uzoqqa borish mumkin emas, bunga tarix guvoh.Dunyo xazinalariga sochilib ketgan buyuk Turkiston tarixi, uning muqaddas narsalari haqida so‘z yuritgan tarixchilar bugun ularni eshitib yoqalarini tutib qolmoqdalar

desak ham bo‘ladi. Chunki ular juda ko‘p, bu esa Turkistonning tarixi ulkan va qadimiy boy bo‘lganligini anglatadi.

Bu tajovuz va o‘g‘rilikning umumdunyoviy suvrati jirkanch. Bir odamning cho‘ntagiga qo‘l tiqqan kissavur umrining falon qismini avaxtada o‘tkazsa-yu, butun millat tarixini talab ketgan o‘g‘rilar ularni o‘z sandiqlarida saqlasalar.

Vatanim deyman-u, bag‘rim qon bo‘lar,  
 Bu qanday vatanki,  
 Xoki birikmas.  
 Buyuk Turon kengliklarida  
 urug‘lar bir-birin yedi tiriklay.  
 Bu qanday vatanki,  
 shohizindalar  
 bir g‘arib elining orini sotsa,  
 shoirlar sultanat zinalarida  
 mansabu martaba tilanib yotsa.  
 Ey siz, adashganlar...  
 Elning qonida  
 Nahotki, samoviy chechaklar so‘lgan!  
 Iloj qolmadimi jang maydonida  
 Oollohu akbar deb o‘lishdan bo‘lak?..

Tarixiy tarqqiyot milliy ma’rifat ko‘zlarini ko‘r qilgan hodisa, ixtilof, o‘zaro dushmanlik, tuqqan- tug‘ishganlarning adovati, tanglik va torlik, boylik, molu dunyo uchun murosasiz kurash, toju taxt, davlatu sarvat uchun olib borilgan jangu jadallar.O‘z do‘sti qolib yovga quchoq ochganlar. Buyuk Turonning mudhish, alamli fojiasi shu!..

Taqdir taqozosi bilan vatanga sohib chiqib qolgan shohu shahzodalar, amiru umaro, xonu xoqonlar bilibmi- bilmaymi, xalq taqdirini otjilovini keng sahroda istagan tomonga burib solgandek hal qildilar.Ular uchun millat va xalq taqdiri haram va yotoqxona oralig‘ida hal qilinadigan shahvoniy hodisadan o‘zga narsa emas edi. Ana shuning uchun olim va fozillar, shoirlar va adiblar ularning ostonasida parcha nonga zor qilindi, faqat ilohiy haqiqatni yozishga buyurilgan qalam ularning oyoqlarini yalashga, to‘pig‘larini hidlashga boshladi. Tarixlar «falonnoma» va qasidalardan boshqasiga yaramadi. Iblislardan malakka, itlar qo‘yga, qashqirlar jayronga aylantirildi.

Turkiston birligi g‘oyasi Shavkat Rahmonning oliy armoni, she’rlarining bosh mavzusi bo‘lgan. U har doim suhbatlarda, yig‘in yo anjumanlarda ayni ana shu nuqtaga ko‘p urg‘u bergen. Markaziy Osiyoning qalbida joylashgan va Turkiston xalqlarining umid-orzusi bo‘lgan o‘zbeklarning bu mintaqadagi tarixiy missiyasi ancha ulug‘ligini teran anglagan shoir xalqlarimizning istiqbol hayoti birlik va yagonalikda ekanini yaxshi his qilgan va o‘zining go‘zal she’rlarida bu ulug‘vor mavzuni qalamga olmoqdan charchamagan.

Asl she’riyat muhabbatdan yoki nafratdan tug‘iladi. Shavkat Rahmon she’rlari ko‘pinchaadolatsizlik, yovuzlik, olchoqlik, xiyonatga cheksiz nafrat tufayli paydo bo‘lgan desak bo‘ladi. Turkiston mavzusidagi she’rlarida bu yaqqol sezilib turadi. Shu sabab ular jismni toblovchi og‘riqqa, kuchli ruhiy to‘lg‘oqlar va shamshir kabi fikrlar aro boyib boradi. Ular insonni iztirobga soladi, o‘yga toldiradi, ruhiy og‘riqlarga duchor qiladi...

“Avtobusdagi o‘ylar” , “Kayfiyat manzaralari” , “Tariqat” , “Sharhi hol” , “Turkiylar” kabi bir qator she’rlarida Turkiston mavzusining eng chuqur og‘riqlarini yoritib beradi.

Shavkat Rahmon she’rlari tashqi bezaklarga boy bo‘lmasa ham, ya’ni asosan to‘q qofiya kelmaydi odatiy she’rlar kabi, lekin bu ham o‘z-o‘zidan emas, Shavkat Rahmon inson aqlini musiqiy allalaydigan, chalg‘itadigan nazmiy ohangdorlikdan atay qochadi. Shavkat Rahmon she’rlari kishi yuragiga sanchiladigan xanjardek o‘tkir, bexato yetib boradigan paykondek, chuqur iz qoldiradigan shamshirdekkal zavorli va qirrador. Tuyg‘ularni shunga monand ifoda etadi.

Parfi Parfi esa -Turkiston mavzusiga bag‘ishlangan she’rlarida falsafiy, ijtimoiy mazmuniga ko‘ra so‘zlarning qaddini-yu qadrini bir banya baland ko‘taradi, qanotini yuksaltiradi, ularga parvoz: beradi. Shoirning "So‘zlar", "She’riyat", "Xarita", "Ona tilim", "Turkiston", "Cho‘li Iroq", "Uyg‘onar Turkiston, uyg‘onar dunyo", "Qadimiylar turkiylardan", "O‘zingni ayama, borayotgan ildiz", "Anglatgani anglagan boshlari qani" singari o‘nlab she’rlarida Turon-Turkistonning olis o‘tmishi , buguni va kelajagi bilan bog‘liq turfa badiiy talqinlar silsilasini kuzatamiz. Badiiy So‘zning shunchalar katta salohiyati borligi-dan hayratlarga cho‘mamiz."So‘zlar" she’ridagi badiiy talqinga ko‘ra, Inson bu-so‘roq gap, undov gap, darak gap. So‘zlar bizga yashamakni o‘rgatar:

“Bir ajab so‘zlardir peshonada to‘plangan ajin”.  
Qo‘llarimiz ham fikrchan So‘zlar.<sup>6</sup>

---

<sup>6</sup>R.Parfi. . Sakina. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 2013. -B.220.

Shu ma'noda, Turon haddan ziyod go'zal so'z. Bu tongotaru quyoshning botishi, yo'ldagi kishi barchasi ajoyib jumlalarga o'xshaydi. Ular umr, taqdir, tiriklik satrlari."Moziyga urilib, sindi ovozim", deydi. Turonzaminning o'tmishi, ko'hna Turkiston xotiralari, ajdodlarning shonli hayoti tarixi lirik qahramon ruhini ko'tarishi, tafakkuriga quvvat berishi bilan barobar mahzun kayfiyatlargacha ham soladi.

Rauf Parfi va Shavkat Rahmon ijodida Turkiston bir biriga o'xhash hamda o'ziga xoslik asosida tasvirlangan, parfizm ohanggi va zulfiqor ruh bilan ikki ijodkorda yurakning eng chuqurlarigacha kirib boradigan og'riqlar, dardlar, orzular takrorlanmas, aynan o'zlariga xos.

## **1. 2. Turkiston mavzusi ifodasida davriylik – istiqlolgacha va undan keyingi davr**

"Mavzu o'z-o'zicha qimmatga ega emas, hammasi subyekting unga bergen ahamiyatiga bog'liq, hamma narsa xayol va sezgi bilan mavzuga kirgan Ruhga bog'liq"<sup>7</sup> (V.G.Beliskiy).

Rauf Rarfi va Shavkat Rahmon Turkistonni shunchaki mazvu qilibgina olgani yo'q, unda qalb dardlarini ifodaladi, o'z dardini xalq dardiga, xalq og'rig'ini o'z og'rig'iga aylantira olgan ijodkorlar edi. Turkiston mavzusiga sezim, dard, og'riq, erk, isyon, chaqiriq, tarix va Ruh kirgiza olgan ijodkorlar edi.

Chinakam lirik she'rni inson ruhining, xarakter kayfiyatining belgili holatini aks ettiruvchi "monolog"i desa ham bo'ladi<sup>8</sup>

Rauf Parfi va Shavkat Rahmon ijodida ham bu mavzu ularning xarakteriga aylanib ketgan, qarashlari, xayollari, fikrlari, turishlari shu yuksak orzuga birlashgan edi. Albatta, mustaqillikkacha va undan keyingi davrda bu mavzuga yuklangan o'z vazifasi va dardi biroz farqli edi desak bo'ladi, chunki mustaqillikkacha Turkistonni parchalagan va talaganlarga qarshi turish, birlashish, Ozod Vatan qurish va Turkistonni tiklash edi.

Mustaqillikdan so'ng ozod Vatan tiklandi, mustaqillik ham endi qo'lga kiritildi. Ammo, Turkiston birlashmad... Turkistonni parchalagan yov qachondir u birlashmasligi uchun avvaldan choralar ko'rib qo'ygan ekan, uning sarhadlarini ko'ngli tusagandek bo'lib tashlab qardosh xalqlarni bir-biridan ayirgan edi – ruslar bularni avvaldan o'ylab qo'ygan...

---

<sup>7</sup> Belinskiy V.G.Maqolalar. – T.: O'zbekiston Davlat nashriyoti, 1948. – B.24

<sup>2</sup> Jamoa.Adabiyot nazariyasi.2 tomlik. 1-tom. – T.: Fan, 1978. – B.122.

Turkiston haqidagi she'rlarga bu ikki davrda ikki xil munosabat bo'lishi aniq edi, shoirga qanday munosabat bildirilishi esa uning atrofidagilarga va hukumatdagilarga bog'liq edi.

Garchi bu xalq sinovlarga chidamli. Tangrining loyimiz dard ila qorgali, zero bu dard buyuk, Vatan dardi – Turkiston dardi. Quchog'i quyoshga beshik bo'lgan el bu bag'rikengligi tufayli Chor Rossiyasi va sovetlar davrida ko'p pand yedi, dushman bundan foydalangan. Turkistonni bo'lib qardosh, qondosh xalqlarni bir-biridan ayirdi...Ammo sabrning ham oxiri bor, sabrlar to'kildi naq kafdag'i qum deganidek zulmga, zug'mga qarshi, mustmlakachilarga qarshi shoir ham she'r bilan, ijodi bilan tik qarab kurashdi desak ham bo'ladi.

Endi esa quyidagi she'rga e'tibor qaratamiz:

### TURKISTON YODI

Naqadar uzundir, og'irdir bu yo'l,  
Dalalar yastanib yotar ko'k kabi.  
Tig'lab xotiramni osmon — cheki yo'q,  
Tizginsiz bu shiddat kenglik asabi.

Bu kenglikda o'ylar meni g'ijimlar,  
Ul o'z qofiyasin sudrab keladir.  
Qancha qochsang, shuncha qilgay hujumlar,  
O'q singari xotiramni tiladir.<sup>9</sup>

Ustoz Rauf Parfining bu she'ri 1981- yilda yozilgan bo'lib "Sakina" to'plamiga kiritilgan, o'sha paytda esa "Sukunat" to'plamida bo'lgan. Bu kabi yana bir qancha she'rlari biroz o'zgartirishlar bilan kiritilgan to'plamga, albatta, davr senzurasi shunday edi, Turkistonni ochiqdan ochiq kuyolmas edi hamma ham.Lekin Rauf Parfi kabi holatlarga e'tibor qaratmagan.

Ustoz shoir she'rda demoqdaki, Turkiston yo'li uzun va og'ir, bunda unga eltuvchi dalalar ko'k kabi yastanib yotibdi, qarasang yana qaraging keladi, unda bo'lging keladi. Osmon cheksizligi – shiddat, bu xotirani tig'laydi, ya'ni bir paytlar butun bo'lgan Turkiston kengliklarini, botirlar ot choptirib yurgan, suluvar chechaklar tergan qirlarni eslatadi...

Shoirni bu kengliklarda o'ylar qiynaydi. Qanday o'ylar? O'z qiyofasini sudrab kelyotgan, qayta qayta har damda esga kelayotgan Turkiston yodi, g'ijimlangan

---

<sup>9</sup> R.Parfi.Sukunat. – T.: Yulduzcha, 1898. – B.194.

o‘ylar...Nega g‘ijimlangan? Sababi, amalga oshmasdan bir chetda qolib ketgan, yovlar tomondin toptalgan orzular o‘yi bu, axir. Undan qancha qochgan bilan shuncha yaqinlashadi, qiziq holat. Demak, bu xayoldan qutilib bo‘lmaydi, u yurakka kirgan, qonga qo‘silgan, suyakka singgan... esdan chiqmaydi – o‘q singari xotirani tilib eslataveradi va og‘riq beraveradi.

Tegramda zich havo — ona Turkiston,  
Yorgay tomirimni ko‘r hayajonim.  
Bu maydon ichinda men to‘kmagan qon,  
Mening uni deya ayagan jonim.

Xotirani o‘q kabi tilgan o‘ylar tasviridan keyin shoir ne demoqda qarang: tegramda zich havo deya Turkistonni atamoqda - havo zich bo‘lsa qanday bo‘ladi bilasizmi, nafas olish qiyinlashadi, tomirlar zo‘riqa boshlaydi, yurakda og‘riq paydo bo‘ladi. Demak, turkiston yodi – havosi ham zich, har dam shoirga og‘riq beradi, qiyaydi uni, bu o‘y bilan yashash qiyin, usiz esa o‘lim...

Ko‘r hayajon – Turkistonni o‘ylasa paydo bo‘ladigan hayajon, ammo uni ko‘zi ko‘r, ya’ni bu orzu, tobora uzoqlashyotgan orzu. Bu hayajon esa tomirimni yorar demoqda, chunki bu maydon ichinda men qon to‘kmadim deyapti, jonini ayadi – endi esa tomirini ko‘r hayajon yoradi.

«Yolg‘on da’vo qilganlar...» So‘zlar shoir.  
«Oqni qaro deganlar...» Ayting, kimlar?!  
Maqbara boshimga yiqlilar hozir,  
Yana tovush: «Harom yegan hokimlar...»

Bu misralarni yana bir ichdan o‘qib ko‘ring-a! Qanday go‘zal ohang, ma’no va haqiqat.Turkistonni nafsi hatalak otib qorniga bog‘langan, senikini yeb to‘ymasdan seni ayblaydigan yaldoqlar bosib ketganki, Yassaviy maqabarasi ham mung‘ayib turibdi, vatani kimlarning qo‘lida xor bo‘ldi – bunga chidolmay har bir g‘isht rangi tovushga aylangan. Yurt ishongan o‘g‘lonlar jim, g‘ishtlar esa so‘zlamoqda:Nido kelar, dunyo mening deganlar , xarom luqma yeganlar deya.

Bu qadim so‘zlar jaranggi bilan kuylamoqda, oqni qora deganlar kimlar deya savol bermoqda shoir unga. Endi esa maqbara boshimga qular hozir demoqdaki, “Harom yegan hokimlar” el boshiga ne kulfatlarni, quilliklarni solmadi...

Parchin-parchin bo‘ldi yodim simlari,  
Simlar — ko‘zlarimga mil tortgan chizgu.  
O‘tgan ulug‘larni eslayman barin,

### Xotirot mozori — Turkiston mangu.

Endi Rauf Parfi tavirlari, ifodalarni kuchaytiradi yana ham, ramzlarini ko‘paytiradi. Ana endi o‘tgan ulug‘lar haqida so‘zlaydi.

Yig‘la endi ko‘zim, sen-da yig‘lab ol,  
To‘ysin ko‘z yoshingga bu turkiy stam.  
To‘ysin, Vatan yodi chidar bemałol

O, sabr daraxti, qutlug‘ Turkiston.  
Naqadar uzundir, og‘irdir bu yo‘l.

Parchin-parchin bo‘ldi yodim simlari demoqda, bu simlar vatanni birlashtirib turgan edi va u ham bo‘linib ketdi. Bu simlar esa shoirning ko‘zlariga tortilgan mil chizig‘i... Xotirotlar ko‘milgan mozor esa – Turkiston. Bu maskandan faqatgina xotiralar qolganki, u ham parchin-parchin, vatanni bo‘lganlar buni-da bo‘lishdi, xotirot uylarini ham buzishdi, tillar Turkistonni eslamay qo‘ydi, odamlar qullikka ko‘nib bormoqda, dushman esa bu yurtdan ketgisi yo‘q...

Bu ulug‘ va og‘ir uzun yo‘da Turkiston sabr daraxti, kutadi u qachondir qonlarda yana Erk oqadi, shiddat yonadi. Hozircha sen ham yig‘la ko‘zim, bu turkey stam ko‘z yoshingga to‘ysin – Vatan yodi shuncha narsaga chidagan bunga ham chidaydi, bardosh beradi...

Zero, shoirning yana qayta yo‘qlab keladigan, sig‘inib keladigan, sog‘inib keladigan joyi ham – Turkiston!

O, Ona Turkiston, qora dunyoda,  
Qismat yelkasida yugurdim, yeldim,  
Goh shavq qanotida, goho piyoda,  
Yukinib, men senga sig‘inib keldim.<sup>10</sup>

Albatta, mustaqillikdan avval Shavkat Rahmonga Turkiston mavzusidagi she’rlari uchun munosabat Rauf Parfiga kabi bo‘lgan. So‘zlari o‘tkir, nigohi turkona, vatan uchun, haqiqat uchun yelib-yuguradigan ijodkorga yaxshi munosbat bildirishmagan, har holda, ko‘rolmaslar. Ayovsiz tashbihlari bilan jamiyatgani qo‘rqaq va g‘alamis kimsalarga qarshi jang boshlagan, maqtanib yuradigan kaza kazo,

---

<sup>10</sup> R.Parfi. . Sakina. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 2013. -B.255.

o‘zlarini ijodkor sanab yurganlarning maza matrasi yo‘q she’rlarini nashriyotga qabul qilmagan qalami o‘rkir Shavkat Rahmonning kamchiliklarini qidirib yuradiganlar, albatta, topilar edi. Shundayin Shavkat Rahmonni ko‘rolmaslar unga har xil ma’lomat toshlarini otar edi, hatto bir she’ridagiv “turkona hovlilar” jumlalari bilan “millatchilik” da ayblaydi...

“Avtobusdagi o‘ylar” she’rida “turkona hovlilar” ning odamlari holiga nazar tashlab, eshiklari oldida teraklaridan ko‘ra majnuntollarning ko‘pligiga e’tibor qaratadi. Va shoir shu ikki darxt savlatiga ham poetik ma’no yuklaydi. Siniq iljaygan, ko‘ngli kemtik odamlarni “sabr daraxti” ga, saksavulga, ”yerga botib ketgan bahodirlar” ga o‘xshatadi. Shu tarzda shoir odamlar orasidan “butun bir odamni” izlaydi, ammo qarashlari kalta “odamning zarralari” ga duch keladi... Shoир qalbi uyg‘oq, shu sabab u: “birgina Turkiston degan so‘z uchun shoir yuragimni yilib berardim”,<sup>11</sup> deydi.

Turkona hovlilar kunga qaragan,  
achchiq mevasidan shirin boli ko‘p,  
ko‘rimsiz eshiklar mangu yopilmas,  
teragidan ko‘ra majnuntoli ko‘p...  
Sabr daraxtiday o‘sgan odamlar —  
saksovul singari chidamli, chayir,  
yerga botib ketgan bahodirlarday  
kunlarga qaraydi siniq iljayib,

Bu yerdagи tashbeh-u ramzlar orqali turkiy xalqlarning yumshoq ko‘ngil bo‘lib qolgani, hamma narsaga beparvo, bergen narsaga ko‘nib, ”och qornim tinch - qulog‘im” deya o‘rganib qolganligi, bahodirlar ko‘kka o‘sish o‘rniga yerga botib ketgn, ya’ni yovga tik qarolmaydi...

Mayxonaga o‘xshar avtobus ichi,  
yosh-yalanglar chaynar nag‘malarini.  
Bir butun odamni ko‘rmadim bunda,  
Ko‘rdim men odamning zarralarini.  
Ko‘ngil ag‘darilar latifalardan,  
orzular, qarashlar naqadar kalta.  
Nega gapirishmas separatchilar  
Indira Gapdini otgani haqda?!

---

<sup>11</sup> Sh.Rahmon. Saylanma. – T.: “Sharq” nashriyoti, 1997. – B.120.

Shoir odamlarning dard-o‘ylari faqat bugun o‘tishi bilan, latifalar, kalta qarashlar bilan tuzilganini, odamning zarralari bo‘lib qolganini ta’kidlaydi. Shurlar tuprog‘imizni o‘ylaydimi deya og‘riqli savol beradi... Birorta kimsadan so‘qimlar davrasini buzib, to‘zitib yuboradigan gap kutadi, yuragimni bir so‘z uchun berib yuborgan bo‘lar edim deydi. Birgina shu so‘zni aytsa, ayta olsa bas!

Bular yashaydilar qaysi kunlarda,  
qayga boradilar, kimga yukinib?  
Shular o‘ylarmikin tuprog‘imizni,  
shular ko‘tararmi elning yukini!?  
Qani birortasi bitta so‘z aytsa,  
so‘qimlar davrasin nogoh to‘zitib.  
shoir yuragimni yulib berardim  
birgina Turkiston degan so‘z uchun.

Shavkat Rahmon odamlarni “ko‘ngilning ko‘zi-la” olamni ko‘rishga, “jaholat makridan” aldanib qolmaslikka chorlaydi. Rost so‘zlagani uchun ravon yozadi. Bunaqa she’rlarni to‘ylarda to‘y yo bayramlarda qo‘shiq qilib aytib bo‘lmaydi, chunki bir xonadonda “chaqmoq ko‘zli bolalar” o‘rnida qullar o‘sib-ulg‘aysa, daholar o‘rnida “muttaham, o‘g‘rilar” unsa, go‘zal tuyg‘ular chirigan, orzu-xayollar irigan bo‘lsa – bu kabi bir muhitni surur tark etadi, albatta. Avtobus derazasidan qarayotganlar yo‘l oxirlab qolyotganidan norozi, ular nega tog‘lar xo‘mrayib qarayotganini bilishmaydi, ko‘zları ochiq yigitlar, qizlar uxlab ketmoqda deydi...

She’rni tom ma’noda har nechuk tutqunlikdan qutqargan, ozod qilan, har qanday tashqi sarhdrlarni buzib tashlagan, so‘zga jon bag‘ishlash sa’natini yaratgan, qarsakbozlik, safsata, maddohlik, qasidabozlik, quruq bayonchilik va arzon pand-nasihat, faylasuflig-u quruq hayqiriqlarni adabiyot maydonidan haydab solmoqchi bo‘lgan, jonli til imkoniyatlaridan foydalangan, ramziy ifoda qiroli, majoz tanlash, jilovsiz ehtirosni so‘z bilan bo‘ysundirishni ilk joriy qilgan va yalang‘och haqiqat tuyg‘usiga ilohiylik libosini kiydirgan ijodkor bo‘la oldi. O‘zbek she’riyatiga kutilmaagan havo olib kira olgan.

Turon. Turkiston... Vatan. Ko‘z o‘ngimizda turkiylarning qadimiyatdan Ona Yeri, Turk dunyosining tarixiy Vatani — salobatli jug‘rofiy hudud namoyon bo‘ladi. Turkiston g‘oyasi xalqlarimizning azaliy muqaddas orzusi, milliy mafkurasidir.<sup>1</sup>

Rauf Parfi O‘zturk vaziyatni anglagan, ichdan kuygan, ochiq gapirgan inson bo‘lgan. Demokratiya tamoyillariga amal qilinmayotgani, Vatan qadri yo‘qolib boryotganini, Turkiston uzoqlashyotgan orzuga aylanib boryotganini aytgan... Milliy o‘zlikka tayanch beruvchi dunyoviy shoir edi u. Bilamizki, o‘sha paytda ham shoirning davishona holatini, haqiqatni ochiq aytisini yoqtirishmasdi, xuddi bu holat

Shavkat Rahmonda ayni edi va Erkni, Vatanni kuylagan, bu vatanni kemiryotganlarni, xalqqa zug‘um qilyotganlarni qoralash kimgargadir yoqmas edi.

Yuqorida aytganimizdek Rauf Parfi ham Shavkat Rahmon ham Turkistonga bo‘lgan sevgisini yashirib o‘tirmagan, she’rlarida barilla kuylagan. Lekin ba’zi to‘plamlaridagi she’rlardan o‘sha paytlarda biroz o‘zgartirish bilan chop etilganlari ham bor. “Sukunat” to‘plamida” Uyg‘onar Turkiston” , “ Cho‘li iroq” , “ Chiroq yonar” kabi bir qancha she’rlari quyidagi misralar o‘zgarishi bilan chop etilgan:

Uyg‘onar Turkiston, uyg‘onar Dunyo,  
Porloq umidlarga to‘lib kun botar.  
Baxt singari olis yulduzlar go‘yo  
Azal go‘zallikning sha’mini yoqar

misralari

Tonglar ziyyosidan – ziyoli dunyo  
Shodlik daryo kabi sharqirab oqar  
Baxt singari olis yulduzlar go‘yo  
Azal go‘zallikning sha’mini yoqar

holatida chop etilgan edi.Va yana quyidagi she’rlarini ko‘rib chiqamiz endi.

Chiroq yonar – sevimli orzu,  
Chiroq yonar - so‘ngi yo‘q hasrat  
Turkistonim kabi yonar u.

misralari esa

Chiroq yonar – sevimli orzu,  
Chiroq yonar - so‘ngi yo‘q hasrat  
Sevinchingiz kabi yonar u.<sup>1</sup>

holatida o‘zgartilib chop etilganini ko‘rishimiz mumkin.Bu kabi she’rlar mustaqillikdan so‘ng asl holicha taqdim etilgan.

Fitratning so‘zlari epigraf qilib olgan 1994 – yilda yozilgan Turkiston haqidagi she’ri esa ko‘ngildan yuzga bo‘rtib chiqqan bu qonlar natijasi bo‘lmish

---

<sup>1</sup>.R.Parfi. Sukunat. – T.: Yulduzcha, 1989. – B.4.

marsiya kafan tutgan mudhish qaro tun tasvirlari bilan boshlanadi, siniq nay firoq nag‘masini chaladi. Og‘ir azon tovushi keladi. Ammo bu tovush tong payti emas, shoir qismati misol qaro bir tunda eshitilmoxda. Bu she‘r Rauf Parfining Turkiston uchun marsiyasi kabi yangraydi, ya’ni quruq safsatalar bilan Turkiston o‘tib ketdi, Olloham bizni endi eshitmaydi deydi....

Azon tovushini tinglayman — og‘ir.  
Turkiston. Qora tun. Shamol va yomg‘ir.<sup>1</sup>

Ikkinchi sonetda yordamga kelib mudhish qora tunni yoritmoqchi bo‘lganday Oy - umid urinadi, lekin u niyatiga yetolmaydi. Chunki, xalqning kelajak shaklidagi mavhumlik tomon yo‘liga yorug‘lik bera olmaydi. Tunni olov shaklida ko‘radi. Amalning shamlari so‘ngan, tilakning yulduzi to‘ngan Yolg‘iz olovday yalov lipillaydi, mukarram yalov:

Turkiston, Turkiston, mukarram yalov...  
Rad etdimmi seni, qoldimmi bejon?  
Amalim shamlari so‘ndimi, Ona!  
Tilagim yulduzi to‘ndimi, Ona?

Uchinchi sonetda Turkistondan ayriliq shamshiri boshida singan, borlig‘i chopilgan, o‘z qonini o‘zi ichgan, dunyo tarixini o‘qib o‘kingan shoir Turkistonni uyg‘otmoqchi bo‘ladi. Biroq ohu faryodimiz arshga yetib bormaydi, shoir demoqdaki, «yetib bormas hech qachon».

Falokat ustiga falokat tutdi. «Intiqom, intiqom» deb ortidan yugurganimiz bilan Turkiston o‘tdi. shonli Turonni uyg‘otmoqchi bo‘ldik, ammo umrining so‘ngiacha Turkiston orzusi, otashi bilan yashagan shoir she‘r oxirida Olloha yuzlanadi. Bu umid oxirgi nafasgacha borligini aytib o‘tadi. Va yana senga ketgum deya so‘zlaydi...

Ay, ulug‘ tog‘larim, ay shonli Turon,  
Tokay uyg‘onmassan, ay qonli Turon!  
Allohim, bilursan qay sori ketdim,  
Allohim, men o‘ldim... Men Senga yetdim...

---

<sup>1</sup>. R.Parfi. So‘ngi vido. – T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006. – B.47.

she’rlarida garchi, xalq ozodlikka erishgan bo‘lsa ham asl vatan, butun vatan – Turkiston birligi uchun kuyladi. Uni turli hududlarga bo‘lib yuborgan sovet hukumati va ko‘plab turk davlatlarini bosib olganlarga qarshi o‘z she’rlarida kurashib, xalqni Turkiston sari chorladi.

Rauf Parfi ham shavkat Rahmon ham mustaqillikdan keyin haqiqat ko‘ziga tik qaragan va uni baralla kuylagan shaxs ijodkorlar bo‘lib qola olgan.

### SHARHI HOL

Shuhrati sochildi bodiyalarga....  
 zarbadan beshtaga bo‘lindi anduh.  
 Yillarga yem bo‘lgan obidalarda  
 tinimsiz aylanar chirqiragan ruh.  
 Buzildi azob-la qurilgan dillar,  
 ilinjdan o‘zga bir tuyg‘u sig‘madi.  
 Nasabin bilmagan sho‘rlik yetimlar  
 g‘aflatda uxladi, kimlar yig‘ladi <sup>2</sup>

Shavkat Rahmonning ushbu she’ri mustaqillikdan keyin yozilgani she’r ma’nosidan ham bilinib turibdi. Chunki, “beshtaga bo‘lindi anduh” demoqda, dushman singdirgan loqaydlik va ruhiyatimizga bergen qattiq zarbadan yagona bo‘lgan birlikdagi Turkiston beshta davlatga bo‘linib ketdi. Turkistonning sha’n-shukuhi buyuk edi. Shoир uning tarixiy shavkatidan qissalar so‘ylamayapti. Bu shavkat bodiya – saholarga sochilib ketdi. Qum barxanlari ostida qolib, garmstellarga yem bo‘ldi. Uning Torobiyl va Jaloliddinlari bor edi. Oriyati qilichdek keskir, vataniga jonini hech bir ikkilanmasdan tikadigan jo‘mardlari bor edi. Bari tarixga aylandi

“Buzildi azob-la qurilgan dillar” deya mustaqillikdan avval endigina turkiy xalqlar birligi paydo bo‘lyotgan edi, o‘z Erkini anglayotgan, yagona vatan – Turkiston ekanligini tushunyotgan edi va bu birlashyotgan dillar buzildi, endi ilinjdan o‘zga narsa yo‘q... Endi “ Nasabin bilmagan sho‘rlik yetimlar” har yon jovidirab boqishmoqda, chunki kimligini, avval kimning farzandlari bo‘lganini unutib, sovet farzandiga aylanib qolganlar mustaqillikka erishgan zaminda g‘aflatda uxbab yotgan edi... Qo‘zg‘olgan dillar ayovsiz bosildi, fitnalar domida zulm

<sup>1</sup>. R. Parfi. Sukunat. – T.: Yulduzcha, 1989. – B.42.

<sup>2</sup>. Sh. Rahmon. Saylanma. – T.: “Sharq” nashriyoti, 1997. – B.192

pishgan edi. Faryodlar esa dushmanning makkor ilmi ila kulguga aylanib ketdi, aslida faryod, alam bo‘lishi kerak joyda tantana va kulgi urchidi... Endi bu zaminda kim qoldi? Bu zaminda iblis makriga uchib bir-birini qiradigan xalq qoldi, garchi qardosh bo‘lsa ham bir-birini qo‘llamay, o‘ldirishga shay olomon... Bu yerda O‘sh voqealariga ham urg‘u berib o‘tilgan! Endi bu yerda o‘lim bilan o‘ynashish maydoni bo‘lgan nazm avjida yuragi yorilgan shoirlar qolur...

Turkiston — tarixi harbistonlarda,  
to‘kilib bitdimi buyuk qomatlar?  
Ruhi dod solmasdi qabristonlarda  
qaddini ko‘tarsa agar nomardlar.  
Buyuk ruh chirqirar... Mudhish saroyda  
zinodan to‘ralgan necha dahriy zot  
urchitar malaklar tug‘ilgan joyda  
o‘zagi aynigan yangi maxluqot...

Buyuk qomatlar to‘kilib bitdimi, demoqda , endi malaklar tug‘ilgan bu joyda o‘zagi aynigan yangi maxluqotlar – o‘zligini bilmagan, tarixini unutgan yangi avlod shakllanmoqda deya afsus qilmoqda, ya’ni bu kengliklarda boshqa avlod, boshqa naslu nasab, ya’ni shoir ta’biri bilan aytganda, «yangi maxluqot» paydo bo‘ldi.Bu «maxluqot» o‘z ildiziga bolta soladigan jallod bo‘lib voyaga yetdi. Shoir ayni ana shu vatanfurushlarni «malaklar tug‘ilgan joyda paydo bo‘lgan yangi maxluqot» deb ataydi.

Shoirning chuqur lirik she’rlariga kirib kelgan tarixiy lavhalar jonli va quyuq bo‘yoqlarda tasvirlanadi. Tarixiy mavzuga qayrilgan qalami kutilmaganda shu qadar o‘tkirasha, Turkiston dardi shu qadar kuchayib boradiki, siz endi she’r o‘qimaysiz, balki o‘z-o‘zingiz bilan talasha boshlaysiz.Nimanidir isbotlaysiz, nimanidir inkor qilasiz.

Turkiston —  
to‘zonday to‘zgan jigarlar,  
jigarlar yo‘linda temir tikanlar,  
gadolik ilmini o‘rgatar endi  
ajdod-avlodi-la bosib shilganlar.

Burg‘ular chirigan... zanglagan tig‘lar...  
itlar tomoq ichar oltin tojidan,  
moziyga tikilib mug‘anniy yig‘lar,  
she’r yozib o‘ltirar lashkarboshilar.

Shavkat Rahnmonning ushbu she'rida kelgan shafqatsiz tashbihlar, betakror ramzlar, odamga azob beradigan haqiqatlar juda ko'p.

Shoirming o'tkir va ayovsiz tili eng qaltis tashbihlarni qidiradi va o'z o'mida qo'llaydi. Ko'z oldimizda «bahaybat zulm»ning suvrati aniq holda chiziladi.

«To'zondek to'zib ketgan Turkiston» qomatini ko'tarolmaydi. Hammasi abas, hamma narsa fanoga yuz burgan. Yengilmas lashkarlardan qolgan«burg'ular chirib, tig'lar zanglagan» va yovqur lashkarboshilar oyoqlarini sandalga tiqib «she'r yozib o'ltiradilar».

## **II. BOB.TURKISTON MAVZUSI IFODASIDA KO'LAMDORLIK VA BADIY TASVIR VOSITALARINING QO'LLANILISHI**

### **2.1. Turkiston mavzusidagi she'rlarda shoir shaxsiyatining lirk qarhamon bilan uyg'unligi**

Meni qayg'uli yozishimga sabab bo'lgan tuyg'u – bu Vatanga - Turkistonga bo'lgan muhabbat tuyg'usidir. Vatanni qullikda azob chekayotganda shoir qayg'uli yozishga majbur. Vaqt kelib, bor haqiqatni ro'y়i – rost anglab yetganlaringdan so'ng, sizning ham ichingiz dardu – faryodga to'ladi. Sho'x – shodon emas, mungli va ma'yus yoza boshlaysiz. Shunda sizlarga qarab, iztirobga to'la g'am muborak bo'lsin, bu saodat sizga muborak bo'lsin, deyman!

Qayg'u odamni ruhan poklaydi. Qayg'urolgan odam, dardli odamga, xasta odamga, nochor – notovon odamga darddosh, maslakdosh, yelkadosh bo'laoladigan odamdir. Bizning bosqinchilarga kuchimiz yetmaydi, shuning uchun g'amginmiz. Biz zo'ravonning yuziga musht tushiraolmaymiz. Shuning uchun g'amginmiz. Isyonimizni g'am, alam va iztirob orqali oshkor etaolamiz. Bu bizning avlod chekiga tushgan qismat bo'ldi.

O'lim! Og'ir! Go'zal! Buni chin sanatkorlar bilganlar. Ta'magir bilmaydi, chunki u yolg'onlar qasrida yashaydi. Hech qachon o'lmaydigandek tasavvurda yuraveradi.<sup>1</sup>

Rauf Parfining yuqorida aytgan gaplari butun hayoti davomida umr yo'liga aylangan qalb hukmiy jarayoni bo'lib, she'rlari va shaxsiyatini butun holda birlashtirganini, g'ayg'uli yozishiga sabab Turkiston dardi ekanligini, bu muqaddas qayg'u umrining so'ngigacha tark etmaganini bilamiz.

Shaxsiyati va she'riyati bir butun bo'lgan ustoz shoir o'z e'tiqodiga sodiq, doim haqiqat taraf, haq so'zni aytgan va bu Vatan ishqisi, azobi bilan qorishib ketgan. Tarixni unutmaslikka, turkiy xalqlarning qonida jimlik, qullik emas – ERK, yovqurlik, shiddat oqishi kerakligini uqtirgan, darvesh shoir bo'lgan. Va hatto o'lganidan so'ng qabriga ham "Assalomu alaykum, dorning og'ochi "deya yozib qo'yilgan...

Bundan bilinadiki, she'rlarida kuylgan dardi hayot yo'lidagi dardi edi, butun qalbi bilan bir paytlar dunyoga hukm o'qigan, yengilmas, egilmas bahodirlarni ulg'aytirib bergen xalning shiddati yana qaytib kelishiga ishongan. Shining bilan shoirning she'riyati ham shaxsiyati ham birgalikda bahsli, munozarali bo'lgan.

---

<sup>1</sup>. R.Parfi. . Sakina. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va sa'nat nashriyoti, 2013. -B.200.

Rauf Parfi o'zining eng shaxsiy va intim tuyg'ularini ham ijtimoiy hayot bilan aralash, yonma-yon ifoda etadi. Sababi, u jamiyatni o'zidan ayri, o'zini esa

jamiyatdan tashqarida ko‘rmaydi. Shuning uchun ham suyukli qizning qora va ma’yus ko‘zlar tasviri quyidagi holatda ijtimoiy yukka ega bo‘lgan nidolar bilan uyg‘unlashib ketganini, “endi Turkiston – mangu makon kulmasmi” deya sovuq mozorlar ramzi bilan ifodalab porloq nur kutyotganini ko‘ramiz:

Turkiston, Turkiston, endi kulmasmi,  
Malomat, tutqunlik endi o‘lmasmi?  
Bir sovuq mozorlarning yo‘llarinda,  
Erkinlikning porloq nuri inmasmi? <sup>1</sup>

“Rauf Parfi dunyoga farishtadek nazar solib, o‘z olamida “shohona hayot” kechirgan pokiza, buyuk siymo edi.”<sup>2</sup>

Rauf Parfining darvishlik tarzidagi hayoti talabalik yillaridan boshlangan. (1960-65-yillar). Saxiy, hazilkash, odamoxun, kamtar, haqiqatparast, haqiqiy darvesh bo‘lgan. Tayinli doimiy ishda ishlagagan, muqim uyda yashamagan, oila masalasida ham tuzuk tarz bo‘lмаган, bu foni dunyoda darveshdek yashab, haqiqiy shoir bo‘lgan.

Rauf Parfi hazilkash, do‘st-ulfatlariga mehribon, ular ham shunday bo‘lgan. Darveshsifat feli tufayli bir necha bor uylangan, shoir o‘z qusurlarini bilsa ham ularni o‘zgartirishga harakat qilmagan – darvesh feli bunga yo‘l qo‘ymagan. Bu qusurlar Rauf Parfiga yarashib turar edi. “ Ba’zi bir insoniy qusurlarda naqadar katta ulug‘vorlik bor “ (Bernar Dade)

Shoir yo‘q, she’riyat yashar – she’riyati abadiy mangu Rauf Parfi she’rlarida lirik qahramon dard va iztirob kuychisi tarzida gavdalanadi va u hech ham quruq so‘zlar kuylamaydi, tilyog‘lamalikdan uzoq, qalb tug‘yonlariga boy holda tasvirlanadi. Bu jaraynda hislar o‘z uslubiga xos, raufona ohang bilan, ajoyib timsollar bilan hamda modern usul bilan tasvirlanadi. Shoир lirik qahramoni ko‘pincha dardli va go‘zal g‘ussaga botgan holda keladi. Ularning original chiqishiga sabab – zo‘rmazo‘rakilik yo‘q, soxtalik uchramaydi. “Rauf Parfi she’rlari chuqur ruhiy kechinmalar asosiga qurilgan. Murakkab assotsiatsiyalar orqali fikrlash g‘oyani bo‘rttirib ko‘rsatishga olib keladi.”<sup>3</sup>

<sup>1.</sup> R.Parfi. . Sakina. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 2013. -B.145.

<sup>2.</sup> Shodmon Otabek.Do‘rmon hangomalari.T.2016. “Sharq” nashriyot i.215 B

<sup>3.</sup> Obidaxon Fayzullayeva.Hozirgi o‘zbek she’riyatida sonet. –T.: Turon zamin ziyo, 2014. – B.26

Lirik asarlarda ham qahramon qatnashgan bo‘lib, “she’rning g‘oyaviy mazmunini, adabiyotning tabiatiga ko‘ra, she’rdagi qahramon orqali ifodalanadi”<sup>1</sup> “She’rdagi lirik qahramon yo badiiy obraz asosiy komponent bo‘lib, u bir xarakter kayfiyati yoxud ruhiyati, xarakter holatini ifodalaydi. Lekin bu bo‘yicha turli qarashlar bor, chunki “Aristotel lirikada qahramon faqat” muallif” bo‘ladi, desa Gegel” lirik subyekt”, Chernishevskiy “men” , Tinyanov “lirik qahramon” deya atalishini taklif qilishgan”<sup>2</sup>

Lirika inson ruhining so‘zлari ekan – bu so‘zлar ruhiyatga, shaxsiyatga aloqador bo‘ladi. She’rda yaratilgan xarakter shoир xarakteri o‘larоq aks etadi eng ko‘p vaqtarda. Agar she’rdagi ruhiy holat – lirik qahramon shoир shaxsiga mos tushmasa, bu she’r muvafqqiyatlideyla olmaymiz va bu biroz soxtalikka yo‘l Burgan bo‘ladi. Rauf Parfi va Shavkat Rahmon she’rlarida lirik qahramon dardkash, Vatan ishqida, dardida yonuvchi, Erkka tashna, haqiqatparst, o‘tkir so‘zli, og‘riqli qalbga ega indondir. O‘z xalqining fidoyi, haqiqat so‘zlovchi farzandi timsoli she’rlarida lirik qahramon sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki, Turkiston haqidagi she’rlarida lirik qahramon muqaqaddas zaminga – Turkistonga sodiq, ahd qilgan, tomirida Erk qonlari oqadi, nigohlari chaqmoq, dardga to‘la bo‘lsa ham, ”buyuk dard muborak” deya Ollohga hamd aytadi, najot istab gavdalanadigan inson. Ana shu lirik qahramon ikki shoир shaxsiga tamoman mos tushadi.

Rauf Parfi she’rlarida aniq bir shaxs porteritini tavsif orqali chizmasdan, balki o‘sha lirik obraz vazifasida keltiradi va lirik qahramon tilidan bayon etishi ham mumkin

Rauf Parfining “ Tangri sog‘inchi” <sup>3</sup> she’rida kontrast holatlarda oksimoronlardan ajoyib tarzda foydalangan lirik qahramon ruhiyatini yorqin tarzda chizib beradi, ko‘z oldimizda qalbi vatan ishqida, azobida yongan, ruhi yuksalgan, turkiy dunyo qalb dunyosiga aylanganini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Bir zamon falakning ko‘zлari so‘ndi,  
Asta qora kiydi mudragan jahon.  
Ruhimning asrlik muzlari sindi,  
Nimadir bog‘zimni kesdi beomon.

Lirik qahramon ruhiyati shu chiziqdan boshlanar ekan, uning ruhiyatini tasvir etishda: falakning bir zamon ko‘zлari so‘ndi – tun kirdi va qora kiydi, mudragan

1. To‘chiyev U. Adabiy tur va janrlar. –T.: Fan, 1992. – B.146

2. Obidaxon Fayzullayeva. Hozirgi o‘zbek she’riyatida sonet. –T.: Turon zamin ziyo, 2014. – B.26

3. R. Parfi. Tavba. – T.: Yozuvchi, 2000. – B.54.

jahon – ancha bo‘lgan uning uyquga cho‘kkaniga, hamonki uyg‘onmaydi, mudrab yotibdi, uyg‘otish uchun esa bir ulug‘ sarboz kerak.

Ruhimning asrlik muzlari sindi – uyquga cho‘mgan Turkiston, ozodlikdan mahrum bo‘lgan el va bir yarim asrlik muzlab qolgan ruh qandaydir tovushdan sindi, demoqda lirik qahramon she’rda.

Naqadar go‘zaldir bu chirkin tovush,  
Ohang vujudimni chirmadi butkul,  
Bo‘g‘ildim, ingradim, titradim behush.

Bu misralardan ko‘rinib turganidek, lirik qahramon ruhi uchun yagona bir davo, darmon izlamoqda. Bu holatda darmon vazifasini ayol mehri o‘tab keladi she’rda. Qahramonning singan, choraszilik va umidsizlikka makon bo‘lgan dili uchun birozgina bo‘lsa ham ilinch bo‘la olyatgan, umid baxsh etyotgan tovush nima sababdan birato‘la ham go‘zal ham chirkin bo‘lish mumkin? Sababi ne? Sababi, uning xayolidagi tasavvur olami do‘zaxni eslatib turadigan tasvir.Va qahramon kayfiyati ham bu yerda juda keskin. Bu keskinlikka esa mayinlik mos tushmaydi. Shu sababdan bo‘lsa kerak, bezovta ruh bu mayin va go‘zal ohang roo‘rin bo‘lgan kabi bo‘g‘iladi, titraydi. Bu tasvirlarni chizib berishda, qiyshiq-qing‘ir, o‘nir-cho‘nqir yo‘llaridan, nohaqliklaridan bezor bo‘lgan, charchagan holat tasviri uchun esa turli betakror ko‘chimlardan ajoyib tarzda foydalaniqgan.

Nechun boshim uzra qora shamollar,  
Osmonda ignadek nur yo‘qdir, nechun?  
Balki sudrar meni mudhish xayollar,  
Ochg‘il ko‘zlaringni, ey so‘ngsiz ochun.

Yuqoridagi misralarda kelyotgan istioralar: “ qora shamollar” – hayotdagি salbiy oqimlar, “ ignadek nur ” – bu yerda haqiqat bo‘lib kelmoqda. Sifatlashlar esa, mudhish xayollar va so‘ngsiz ochun, ”sudrar xayollar”, ”ochgin, ko‘zlaringni ochun” esa apostrof bo‘lib kelmoqda.Bu ko‘chimlar orqali ma’no yana ham oydinlashadi.Turkiston dardi bilan yonyotgan qalb va ruh chizgisi ajoyib tarzda tasvirlab berilgan.

Izg‘irin Turondan, to‘fonlar Chindan,  
Yomg‘irli yolg‘izlik, g‘ubor ichindan,

Munojotlar qildim, qaqshab sig‘indim.  
Shaftolirang olam nayza uchinda...

Dunyolari yolg‘on, men o‘ldim chindan...  
Ulug‘ Tangrim, seni achchiq sog‘indim.

Lirik qahramon bu she’rda o‘tkinchi dunyodan haqiqat izlashi kerksiz narsa ekanligi, chunki chin dunyod Haqqa, Haqiqatga erishish imkoni bor, xolos. She’rda “qorong‘u nigoh” , “sovuq shivir” , “aziz tovush” , “rangin ovoz” , “mudragan jahon” , “ yomg‘irli yolg‘izlik ” kabi bir qator takrorlanmas, noananaviy epitetlar qo‘llanilgan bo‘lib she’rda alohida o‘rin egallab kelgan.Yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, Rauf Parfining Turkiston haqidagi she’rlarida lirik qahramon og‘riqni boshdan kechirish, dard chekish jarayoni butun murakkabliklari bilan chizib beriladi. Quyidagi she’rida ham shoir shaxsiyati bilan she’riyati birlashib ketganini ko‘ramiz:

Ey siz, to‘yanlar,  
Ey Siz, bashang olomon,  
Yuzingizga sepaman so‘zlarimni...  
Ha, hech narsa yo‘q menda, hech narsa.  
Xotin — yo‘q,  
Farzand — yo‘q,  
Do‘st — yo‘q  
Vatan — yo‘q.  
Yo‘qotganlarimning alami - zahri,  
Ko‘ksimdagি sanchiq olami,  
She’riyatdan boshqa,  
Hech narsa, hech narsa, hech narsa. <sup>1</sup>

Bu she’r mustaqillikdan keyin, oxirgi yillarda yozilgan she’rlaridan bo‘lib – Turkiston orzusi tobora uzoqlashib boryotganini sezgan Rauf Parfi she’rlarida o‘tli og‘riqlarni yana-da ko‘oaytirgan edi.Va bu she’rdagi lirik qahramon ham olamonga, har narsaga ko‘nib qolgan, kechasini unutgan odamlarga “Yuzingizga sepaman so‘zlarimni” demoqdaki, achchiq, og‘riqli, dardli so‘zlarini Vatan dardi yo‘qolib ketgan yuzlilarga endi menda hech narsa yo‘q demoqda.

Xuddi shu kabi holardagi lirik qahramon quyidagi “Shamol, sochlarimni tarama “ she’rida ham ishtirok etadi:

---

<sup>1</sup>. R.Parfi. . Sakina. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 2013. -B.199.

Oldinda ko‘rinur bahorlar,  
 Bu — Turkiy Dunyoning Bahori.  
 Pichoqlar bo‘g‘zimga yetganda  
 Qaltirab to‘kmasman yoshimni,

Hech narsa yo‘q mening yelkamda,  
 Men senga baxsh etdim boshimni.<sup>12</sup>

Lirik qahramon bahorni intizor kutgan, “Shamol, sochlarimni tarama” deya azoblarga ko‘ngan, qismatga esa hayron qaramaslikni aytib Turon diyoriga alvido aytayotgan(garchi, oldinda bahorlar ko‘rinsa ham) farzand sifatida gavdalanadi. Lirik qahramon butunligicha o‘zini vatanga bag‘ishlagan – “Men senga baxsh etdim boshimni” deya murojaat qiladi...

Turkiston haqidagi she’rlardagi lirik qahramon shoir shaxsi kabi dardchil, haqiqatparast, buyuk qayg‘u – Turkiston qayg‘usi Rauf Parfi kabi Shavkat Rahmon she’larida ham o‘z ifodasini topgan. Rauf Parfi qanchalar darvishona hayot kechirgan bo‘lsa Shavkat Rahmon shiddat bilan, o‘zining tog‘lardek ulkan erki, o‘tkir shamshirdek qalbi bialn hayot kechirgan. Shavkat Rahmon shaxsiyati murakkab bo‘lgan.U shafqatsiz tashbehlari, rubobiy ohanglari, jo‘mardlar ko‘milgan tariqati bilan o‘zining o‘tkir nigohlari aro qaragan, bukilmas e’tiqod sohibi bo‘lgan. O‘z zimmasiga ongli ravishda og‘ir ijtimoiy estetik yukni olgan, doim xalqni, haqni o‘ylagan ijodkor bo‘lgan. So‘z Shavkat Rahmon uchun ham muqaddas bo‘lgan. Uni charxlagan, yurakdan chiqargan va qiyanagan.Vatan yo‘lida, Turkiston yo‘lida yurakka ulkan dard yuklagan. Zero:

O‘z holiga qo‘ymang yurakni  
 Yashamaslik uchun yuraksiz

deya xitob qiladi.Yuraksiz yashamaslik uchun uni har ko‘yga solish – Ishq bilan og‘ritish, Erk bilan to‘ldirish, Vatan dardi bilan azoblash va She’r bilan chulg‘ash kerak, zero yuraksiz yashamaslik uchun!Chunki, Shoirning har qadami o‘limga qarshi, har qadami she’r, she’r yozmaslik qo‘lidan kelmaydi: “ Tursunali Adashboyevga bergen hamma kitoblariga “she’r yozmaslikka haqqi yo‘q ukangizdan ” tarzida dastxat yozib berar ekan.”<sup>1</sup>

---

<sup>12</sup> R.Parfi. Sukunat. – T.: Yulduzcha, 1989. – B.50

Shavkat Rahmon ruhi o'tkir, obrazlari, so'zлari, tashbehlari ham shunday keskir va qontalash. She'rlarining eng sara na'munalidan biri "Turkiylar" she'rida birikmagan xalq holi bayon qilinganini lko'rishimiz she'rdagi lirik qahramon ruhiyati bilan shoir shaxsi yaxlitligini ko'rishimiz mumkin, bu fojiya laxta-laxta qonga aylangan shoir yuragining achchiq faryodi bo'lib qalb osmonlari uzra o'rlaydi... Chunki, bir paytlar yuragi baquvvat, nigohi shamshir, erki tog', oriyati osmon turkiylarga ne bo'ldi? Bugun hatto odamlar tilida Turkiston so'zi ham kamayib, kechasini unutib, buguniga loqaydlarcha ko'nib boryotgan olomon paydo bo'lmoqda. Shavkat Rahmon bir she'rida aytganidek:

shoir yuragimni yulib berardim,  
birgina Turkiston degan so'z uchun...<sup>13</sup>

O'zini o'nglamagan, o'z erkiga, asl yeriga ega bo'limgan, qaddini tiklamagan vatan o'lik misoli va uning odamlari esa quldir, deya fikr aytadi:

Dalv oyi. Atrofda bir hovuch qor yo'q.  
Devona og'ochlar kezmish tumanda.  
Ko'ngilning holini so'rashga yor yo'q,  
Jo'mard yo'q so'yayin desam Turondan<sup>14</sup>

Lirik qahramon Turondan gap ochay desam jo'mardlar qolmagan demoqda... Atrof yolg'onlarga to'la-yu ko'ngil holing so'rashga yor yo'q. Davl oyi tasviri bilan qahramon ruhiyati uyg'un tarzda ichkin. Atrof to'la odam – sen esa yolg'izdek.

Keyingi misralarda ea Turkiston kengliklari aro ulkan bir o'laksa yotgandek, bu kengliklar yashillikka emas – xazonga aylanib bormoqda, deydi...

Turon kengliklari sorig'dan sorig',  
Ulkan bir o'laksa yotganday go'yo...<sup>15</sup>

Ichida bo'riday uvlagan shamol qahramonni hech tinch qo'ymaydi, uni qiyinaydi, savollar paydo qiladi, nabiyday so'yayinmi, olovdan so'yayinmi yo maydan... Har yer soxtalik, soxta bullar shuhrat topgan, xalqning esa bor budini

<sup>13</sup> Qozoqboy Y.Ochqich so'z.- T.: Tafakkur, 2019. – B.236.

<sup>14</sup> Sh.Rahmon. Saylanma. – T.: "Sharq" nashriyoti, 1997. – B.120

<sup>15</sup> Sh.Rahmon. Saylanma. – T.: "Sharq" nashriyoti, 1997. – B.190.

kalamish tashimoqda – Turkiston vatandoshlari o‘z narsasini berib, o‘zlari o‘g‘rilikda, yalqovlikda ayblanmoqda. Lirik qahramon bularni ko‘rib eng yuksak joyi – qalbiga so‘zlamoqda:

Ey ko‘ngil, poyingda bir tuproq bo‘ldim,  
Ketmagil, shu yerda baralla yig‘la.

Bu misralarda lirik qahramon yorug‘ manzillarga intilgan nekbin solik bo‘lib anduh chekadi, bu kengliklarda ulkan bir o‘laksa yotibdi deya zamziy ifoda yuritadi. Bunday she’rlarida lirik qahramon anduhi shoir dardlari o‘laroq yangraydi, umrining maqsadi, mashalasi bo‘lgan Turkiston dardini kuylaydi. Va bunday ulkan darda ega bo‘lgan Shavkat Rahmon qisqa umr ko‘rsa ham, o‘zidan o‘chmas og‘riqli dardlar, mag‘zi to‘q ijod na‘munalari qoldirib ketgan.

Bu atomdek quvvat, baland qoyalardek misralar bilan O‘z yo‘lida ijod etgan. She’riyatidagi yovqurlik, ruhiy yuksaklik, shiddat she’rlari mohiyatiga singib ketgan. Lirik qahramon va shoir shaxsi yaxlitligi Rauf Parfi va Shavkat Rahmon she’rlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi, bunda soxtalik va zo‘zma-zo‘rakilik sezilmaydi:

Dunyoga sig‘madim, sig‘madi dunyo  
g‘urbatdan toraygan tabiatimga,

Dunyoga sig‘magan qalbga ega bo‘lgan shoir she’rlarida lirik qahramon aksi go‘zal, u g‘urbatdan toraygan tabitimga dunyo mayda-chuydalari sig‘madi demoqda. Turkiston uzra yolg‘onlar urchiganki, qora guruuhlar xalqni talab qullarga aylantirganki, uyg‘onish, bunda qutilish uchun esa zulfiqor – o‘tkir Ruh kerrak:

Tokay bu iblislik, tokay bu yolg‘on,  
tokay tig‘ ko‘tarar qora guruuhlar,  
Zulfiqor ruh kerak, kerak chin yog‘du,  
chin ishq yog‘dulari bag‘rimga to‘lsin,

Bunday juratkor she’riyat qanday paydo bo‘lib qoldi. Rauf Parfi-yu Shavkat Rahmonning Turkistonni istibdod davrida turib bu qadar ochiq kuylay olishi tabiiy hodisa emas edi... Ochiq ko‘z bilan yashash esa hammaning ham qo‘lidan kelmas edi. Yolg‘onlar urchib ketgan, xalq esa uning changalida, Vatan – Turkiston katta bo‘laklarga bo‘lingan... Atrofda vabo kabi qullik, bo‘hton va hirsga to‘la erksiz odamlar - yurt istilo qilingan... Shavkat Rahmon esa bu yolg‘onlardan qutilish uchun isyon qiladi va bu yo‘lda o‘lim topsam ham:

ko‘milsam, ko‘milay o‘limi go‘zal —  
jo‘mardlar ko‘milgan tariqatimga.

deya Turkoston yo‘lida ulkan yuragi bilan ulkan dardlar bilan olg‘a borishini aytmoqda.

Shavkat Rahmon ham shaxslik maomidagi shoir bo‘lgan, shaxs – shoir edi. O‘z zimmasidagi vazifasini ado etish uchun kuyib yonib kuylagan, kurashgan ijodkor shaxs. She‘r shoirning ijtimoiy vijdoni. Shavkat Rahmonga esa ijtimoiy mavzuni shaxsiy mavzu sifatida yoki buning aksi shaxsiy dardni ijtimoiy dard darajasida kuylash baxti nasib etgan. U ko‘pning dardini o‘z ko‘ngil hislaridan o‘tkazib, uni shaxsiylashtira olgan. Va bu umumdard shaxs dardiga, ”men” dardiga aylangan. Lirik qahramon shoir shaxsi bilan bog‘lanib ketgan tamoman.

## **2.2.Turkiston mavusi ifodasida poetik obrazlar, tasvir vositalarining qo‘llanilishi**

Lirika poetik xarakterning yaxlit qirralaridan darak beradi. Har bitta she‘r tugal bur xarakterning ma’lum bir qirrasini namoyon qilib berar ekan Turkiston mavzusida she‘rdan she‘rga shoir ruhiyati yuksalib boradi, xarakter qirralari namoyon bo‘la boradi. Bunda she‘rda ishtirok etgan poetik obrazlar, tasvir vositalari katta rol o‘ynaydi. Unda qatnashgan ramzlar she‘r ahamiyatini orttiradi. Garchi “ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, lekin undan farqi shuki, zamz kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo‘lganda reallashadi.”<sup>16</sup>

Rauf Parfi va Shavkat Rahmon she‘rlarida ham ramzlar poetik obraz darajasida tasvirlanganki, “tosh”, “shamol”, “so‘z”, “o‘lim”, “qora devor”, “sham”, “bahorlar”, “qora shamollar”, “mudhish xayollar”, “chirkin tovush” kabi hissiy va “itlar bazmi”, “chirqiragan ruh”, “ulkan o‘laksa”, “qora guruhlar”, “zulfiqor ruh”, “soxta bulbullar”, “qarg‘alar”, “chilparchin yorug” kabi keskir ramzlarni Turkiston mavzusidagi she‘rlarida juda ko‘p uchratamiz.

“Bitiktosh” she‘rida tosh – mangulik ramzi, yurt tarixi, xalq erki timsoli bo‘lib keladi. Bu bitiktoshga turklarning qadimgi sarkardalari, xoqonlari haqida yozilgan, ularning mardligi tasvirlangan, yovga bo‘yin egmagan botirlari haqida. Va she‘rda

<sup>16</sup> N. Nimjonov.Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. – T.: Fan, 2007. – B.112.

R.Parfi. Sukunat. – T.: Yulduzcha, 1989. – B.44

Парфи. Р. Сўнги видо. – Т.: Алишер навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутбхонаси нашриёти. 2006. 14-бет.

tosh poetik obraz darajasiga chiqadi, Vatanga qiyoslanadi, buyuk bardosh deb ataladi. Davrlar silsilasida hamma bosh egdi, yolg‘iz sen qolding bo‘yinsunmagan degandek:

Vatan quyunida ne davru davron  
Bu – toshga aylangan erkadir, bardoshdir...  
Bu Vatan atalgan muqaddas armon.<sup>2</sup>

Poetik obraz haqida gap ketar ekan, Rauf Parfining “Uyg‘onar Turkiston , uyg‘onar dunyo” she’ridagi “ alam” poetik obraziga misol. She’rda ta’riflangan o‘tkinchi dunyo sarsongarchiligi, tashvilari sabab qilingan orzular ushalmasligi armonni va alam tuyg‘usini paydo qilmoqda.

Bu kun sen boshqasan, duno boshqadir  
Sen-da Hur tug‘ilding. Bir so‘zla. Bir o‘l,  
Va bilgil qaylarda sarsondir Alam...

Rauf Parfining Turkiston haqidagi she’rlarida ishtirok etgan poetik ovrazlar lirik qahramon ruhiyatini ochib berishda katta rol o‘ynagan. Quyidagi she’rida ham poetik obraz va tasvir vositalarini o‘rganadigan bo‘lsak, lirik qahramon xayolida toim kuuylanib turadigan ezgin hikoya – Turkiston hikoyasi va lekin ko‘z oldidaparda tortilgan, zavqlanib ko‘ra olmaydi, parda – ramz bo‘lib kelmoqda.

Ko‘ringiz tarixni, ey turkiy xalqim,  
Ko‘zimga ertaning sevinchi xolos.  
Ul Turondir, Turkistondir? U balkim  
Ichimni kemirgan qadimi qasos.<sup>17</sup>

Ko‘zida faqatgina ertaning sevinchi - Turkiston qolgan lirik qahramon, balki bu qadimi qasosdir deydi. Shavkat Rahmonning quyidagi she’rida esa tasvir, ramz, keskir tashbehlar darrov ko‘zga tashlanadi.

Dalv oyi. Atrofda bir hovuch qor yo‘q.  
Devona og‘ochlar kezmish tumanda.  
Ko‘ngilning holini so‘rashga yor yo‘q,

---

<sup>17</sup> Parfi. . Sakina. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 2013. - B.194.

Sh.Rahmon. Saylanma. – T.: “Sharq” nashriyoti, 1997. – B.120.

## Jo‘mard yo‘q so‘yayin desam Turondan<sup>2</sup>

Ko‘ngil holini so‘raydigan odam yo‘qligidan dardlashdan qahramon birorta jo‘mard topilmaydi demoqda. Qarg‘alar – ramziy ifodasi bilan har yerni egallagan yovuz niyatlılar haqida aytmoqda. Turon kengliklari aro ulkan o‘laksa yotgandek go‘yo deb endi yashil joylar o‘rnini sorig‘ kengliklar egallamoqda, ya’ni orzular sarobga aylanin bormoqda.

Qarg‘alar bosdi so‘ng... Chilparchin yorug‘,  
korishdi talvasa — nur bilan ro‘yo,  
Turon kengliklari sorijdan sorig‘,  
ulkan bir o‘laksa yotganday go‘yo...

Rauf Parfi so‘zning timsolli ma’no jilvalarini kashf etishda o‘ziga xos betakror mustaqil yo‘lga ega bo‘lgan shoir bo‘lgan. Yangi shaklda yangi gap aytish uchun doim izlanar ekan, tanish so‘zlar zimmasiga kattanyangi va chuqur ma’nolar yuklaydi. Mazkur yo‘nalishda Rauf Parfi she‘r satrlarini sindirishni yaxshi ko‘radi. Bundan so‘zning badiiy-estetik ta’sir kuchi, salmog‘i ortsa ortadiki, aslo bukilmaydi, susaymaydi. "Lutfixonim. Uyg‘on bolam", "Uyg‘onar Turkiston, uyg‘onar dunyo", "Turkiston yodi", "Og‘riq" singari vatanparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan o‘nlab she’rlarida milliy birlik g‘oyasining rangin qirralari yoritiladi. ("Uyg‘on, uyg‘on bolam, uyg‘ongil, ey dil"; "O, sabr daraxti, qutlug‘ Turkiston"). Ko‘ngil hur tug‘ilgan edi. Ruhning omonligi, erki "azal go‘zallikning shamini yoqadi". Yorqin saharlarda

"Kelur ot o‘ynatib haloskor sarboz". So‘z shunday bir ruhoni Vatanki, u ushalmagan, kelajakdan umidvor xayollarning ham vatani. Lirik qahramonning holati, bu – Ko‘lankalar yurtida, Sharpalar orasida oftobga tikilib otirgan Xayolni eslatadi. U oz orzu-oylarini "Isming nima?", deb so‘roqqa tutgandek bo‘ladi. "Mening ismim ozodlik", deb javob beradi u.Farzandlaring qani, nega bir o‘zing yolg‘izsan?

Bola-chaqalarim ko‘p edi. Birisi taxtga chiqib, toj kiyib qurban boldi. Ikkinchisi, toju taxtga qasida o‘qiymen, deb es-hushidan ayrildi, tildan qoldi. Qolganlari arosat vodiysida tentirab yurishibdi...

Xullas, shoir talqinidagi ishq bu-tush misoli tutib va yetishib bo‘lmas Erk, Haqiqatga erishish, Turkistonga erishish. Bu fikr-tuyg‘u ruh erkinligi demak. Shu jihatdan ham, u badiiy So‘z zimmasiga g‘oyat chung va teran manolar yuklaydi. Chunonchi, So‘z bu shaxs erki, millat va Vatan ozodligi, Turkiston birligi, fikr va ruh ekinligi ana shu So‘zda mujassamlashadi. Rarfi Parfi obrazlari, timsollari, badiiy umumlashmalari orqali So‘zning ana shu taxlit turfa mano qatlamlarini, yangi she’rining falsafiy-estetik tabiatini yoritib beradi.

Rauf Parfi she'rlarida obrazlilikni yuzaga chiqarishda uni paydo qiluvchi omillar va obrazlilik vositalri o'zgacha, takrorlanmas, raufona.Ularda zo'rmazo'rakilik, soxtalik, haybarakallachilik holatlari kuzatilmaydi. She'rlarida ko'p uchraydigan poetik obrazlardan biri esa "tosh", "o'lim" o'zining alohida ma'nosi bilan ajralib turadi.Goh uni og'irlashtiradi, goh muqaddas qiladi, bazan sovuqlik ramzi bo'lib keladi.

### YONAYOTGAN AYOL

Tentirar Kasofat g'olib Axraman,  
Haqorat jar solar bunda bemalol.

Qayon ketmoqdasan yonib, qahramon,  
Qayon ketmoqdasan Ey yong'in-Ayol.<sup>1</sup>

she'rda o'zbek ayolining, kelajak avlodni tarbiyalab ulg'aytiradigan onaning ruhiy olami tasvirlanadi. Yonayotgan ayol Turkiston ayoli timsoli, razmiy ifoda bu she'rda ham ustunlikka chiqqan.

Ko'ksingda Harorat so'nib bo'ldimi?  
Ko'zingda so'nggi sha'm o'chdimi, nahot?  
To'xta! Qolgan qoldi, o'lgan-o'ldimi?  
To'xta, deyman, bordir, bor o'zga hayot.

she'rda o'zbek ayolining, kelajak avlodni tarbiyalab ulg'aytiradigan onaning ruhiy olami tasvirlanadi. Ayol Axraman (yovuzlik) hukmron bo'lган dunyoda ilojsizlikda kelajakda xavotirda tentiraydi, alanglanadi, yonadi. Lirik qahramon uning kuyib kul bo'lishidan xavotirda, uning yonib bitish holatini " Ko'ksingda harorat so'nib bo'ldimi" deya savol bilan tasvirlaydi, asrab qolishga intiladi.

Yonayotgan Ayol, shafqat qil, uyg'on,  
Yonayotgan Ayol, Xuruzm panohing,  
Bolangga qaragil u tirik Tug'yon.  
Tirik Jasoratdir, tirik Ollohing...

Qani turkiylaring, Turoning qani?!

Yonayotgan Ayol, yondir Dunyoni

Deyish orqali ayolning jasoratini uyg'otish uchun va bu yo'lda kelajakka ishonch hosil qilishi uchun, turkiylar tug'ining balandlanishida asosiy omil bo'la olishini aytib uni oldga undaydi.Turoning qani seni hmoya qiladigan, seni xo'rlikdan

qutqaradigan.Turkiylaringga ne bo'ldi? Yonayotgan ayol endi dunyoni ham yonder, toki dunyo zulmdan qutilsin, uyg'onsin.

Shavkat Rahmon lirikasi ham betakror obrazlar silsilasidir. Shoir har bir fasl, tog', daraxt, soy, oy, yulduz, bulut, giyoh, xazon, bog', gul, qush, kapalak, dengiz, o'rmon, bo'ri, tun, ko'z, quyosh, yer kabi obrazlar zamiriga yangi-yangi ma'nolar tashib keladi, favqulodda fikrlar aytib, kutilmagan hayotiy xulosalarni chiqaradi. O'z fikriga o'quvchini ergashtirib, uning hissiy, aqliy quvvatiga ta'sir etib, she'rning umumiyl pafosiga uni ham sherik qiladi. Shu bois aytish mumkinki, shoirning har bir yaratgan yangi obrazi - yangi bir betakror hilqat!

Vujudimning har bir hujayrasida so'zlarning sodiq qo'shini — Turkiston, Turkiston, Turkiston — Turkiyning dunyoviy qo'shig'i. Yo'q, hali yo'q, shoir ekvator bo'ylab sening yuragingdan otilgan o'qdek.Rauf Parfi va Shavkat Rahmon ijodida Turkiston butun bo'y-basti bilan yoritiladi, Vatan dardi yuksak cho'qqi – asl qalbdan turib kuylanadi.

Shavkat Rahmon sha'n-shavkatli Turkistonning eng so'nggi manzarasi shunday chizadi. Shoir xayolan tarix sarhadlariga boradi va ko'rgan-kechirganlarini alam bilan hikoya qiladi.Turkilarning avvalgi keying ahvol tasvirini chizib beradi:

Qilichin tashladi beklar nihoyat,  
bosildi tulporlar,  
tig'lar suroni,  
urhoga o'rgangan tillarda oyat,  
turkiylar tanidi komil xudoni.<sup>1</sup>

Shoирning «Turkiylar» she'ridagi ushbu satrlar orqali xalqimiz tarixidagi favqulodda ijtimoiy voqelikning badiiy chizmasi keltiriladi. Bilamizki, turkiy xalqlar qadimdan o'zining jangariligi, mard va botirligi tufayli surunkali yurishlar va so'qishlar oqibatida dunyoning ko'p mintaqalarini ishg'ol qildilar va bir necha asrlar davomida yashab qolgan sultanatlarga asos soldilar. Bashariyat tarixida kamdan-kam xalqlarga nasib qiladigan bunday sha'n qismat haqida tarixiy manbalar teran ma'lumotlarni hikoya qiladi. Ammo qachonki qalblari iymon nuri bilan munavvar bo'lgach, qahru g'azab, shafqatsizlik va taaddilarga barham berildi, ular imon-insofli, diyonatli, sabr- tahammulli darveshsifatzotlarga aylana bordilar.

Qilichlar zangladi...  
falokat hushyor,  
turkiylar quvvatin berdi yerkarga.

---

<sup>1</sup>. Sh.Rahmon. Saylanma. – T.: “Sharq” nashriyoti, 1997. – B.190.

Hiylagar do'stlarday yaqinlashdi yov  
komillik qidirgan jasur erlarga.

Ilvasin yigitlar,  
bobur yigitlar,  
sajdaga bosh qo'ydi yovga ters qarab,  
g'ullarni kemirib yig'ladi itlar,  
buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab.

Manzaraga e'tibor bering: qilichni tasbih va ketmonga almashgan turkiylar jang-jadallarning bahridan o'tib, osuda turmushni ixtiyor etdilar. Turkiy xalqlarning tarixiy fofiasini dalillar va burhonlar tilida ham tahlil qilish, shohlar va shahzodalarining o'zaro ixtiloflari tufayli tobora zaiflasha borgan xonliklar, jaholat va bid'atga aylangan ta'lim-tarbiya va boshqa narsalar xususida uzoq gapirish mumkin... Shoir ta'kidlashicha, turkiy xalqlar hatto sultanatning hududlarini-da unutdilar, dunyoparastlik o'rnini qanoat, jangarilik o'rnini mehr-muruvvat, qilichbozlik o'rnini zikru sano ishg'ol qildi. Xonaqohlarda darvesh va go'zal xulqli qalandarlarning hayyo-huvi, azon sadolari yangray boshladи. Kechagina bo'ynini egib, qisinib-qimtinib turgan dushmanlar yovvosh tortib qolgan turkiylar huzuriga labda muloyim kulgu, qo'yinda chag'ir toshbilan keldilar. Tarixiy bo'hronlar shundan dalolat beradiki, ko'p holatlarda turkiylar boshiga tushgan katta talafotlar ayni ularning namoz ado etayotgan paytlariga to'g'ri kelgan. «Ilvasin yigitlar, bobur yigitlar»ning yov bilan ishi yo'q, ular qo'yniga pichoq solib kelgan yovga qayrilib ham qaramadilar. Dala-dashtlarnilarzaga solib yurgan bo'ribosarlar bo'ynilariga solingan g'o'llarni chaynab, ko'kka boqib benajot uvlay boshladilar. Turkda bosh qolmadi... Hamma narsasini talab ketishdi.yovlar ters qara deb buyirdi, yovlarga ters qarab yashadiulg'aydi, o'ldi, tug'ildi...

Turkiy xalqlar qismatida qorong'u kunlar boshlandi. Komillik va mo'minlik talabida shamshiru qalqonne tashlab, tasbih va sajjodaga yuкинан turkiylar bosqichma-bosqich saltanat hududlarini qo'ldan boy bera boshladilar. Nihoyat, uning sahrolari va shaharlariga bosh suqib, so'ng oyoqlarini ham kiritib olgan yovlar boshiga chiqib qo'r tikdilar. Yov ayovsiz, ammo juda makkor edi. U faqat lashkar va to'plari bilan emas, uzoqni ko'ra bilgувчи siyosatdonlari, jug'rofiyunlari, muarrix va muallimlari bilan«tashrif buyurdi». Bu «tashrif» nihoyat yuz yillarga cho'zildi. «Mehmon» buyerlardan ketishni xayoliga ham keltirmasdi. Shu yerlarda bolaladi, shu yerlarda «palak tashlab» ko'paydi. Shoирning tarixiy lavhalar tasviriga chog'langan o'tkir va birmuncha tig'dor tili fojialar silsilasini aks ettirar ekan, eng qizg'in va mardona so'zlarni intixob etadi. Shoирning ehtiroslari oqimiga tushgan so'zlar avval cho'g'lanib, so'ng yog'dulana boradi va nihoyat, yo butkul yorilib

ketadi yoxud kul bo‘lib sochiladi. Shavkat Rahmon faqat bir ma’noda ayovsiz shoir. U, avvalo, o‘ziga shafqat qilmaydi, vujudidan otilib chiqayotgan so‘zlar oqimini to‘xtatib qolish aslo mumkin emas. Shoir o‘sha ohangda davom etadi:

Tug‘ildi,  
tug‘ildi, tug‘ildi qullar,  
qirqida qirqilgan— imdodga muhtoj,  
yovlarga ters qarab itlarday hurar,  
biri-biriga dushman, bir-biridan koj.  
Jo‘mardlar qirilgan Turonzaminda  
do‘zaxiy tajriba pallasinko‘rdim:  
eshshak suvrati bor qay bir qavmda,  
qay birida to‘ng‘iz kallasin ko‘rdim.

Bundan buyog‘iga turkiy qavmlar hayotida haqiqiy fojialar davri boshlandi. Dunyoda bir necha qur saltanat tiklagan turkiylar yuvvosh xalqqa aylandi. Nasllar almashindi. Qullar tug‘ildi, qullardan qullar, qullardan qullar...Bu intihosiz qullar karvonining oxiri ko‘rinmasdi. Mo‘minlar ortga qaramay sjada qiladi, ortga qaray desa, boshiqa urar yov! Yovga tikka qarolmaydi. Shavkat Rahmon she’riyati bu she’rida adabiyotimizdagi ilk bor odam psixologiyasining o‘ta nozik nuqtalarini she’riy til bilan tadqiq etadi, badiiy-psixologik kashfiyotlar yaratadi. She’r nihoyasida shoir asl muddaoga ko‘chadi:

Bormi er yigitlar,  
bormi er qizlar,  
bormi gul bag‘ringda jo‘mard nolalar,  
Bor bo‘lsa, alarga yetkarib qo‘ying,  
bir boshga bir o‘lim demagan ermas,  
shahidlar o‘lmaydi, bir qarab to‘ying:  
Yovga ters qaragan musulmon emas!  
Yovga ters qaragan musulmon emas!

O‘zbek adabiyotida chinakam voqeа bo‘lgan, turkiy xalqlarning asriy fojiasi tugal inkishof etilgan badiiy asardir. Besh marta yangragan so‘nggi satr marhum shoirning «zulfiqor ruhi»dan sachragan imon shu'lalaridir. Shavkat Rahmon XX asr o‘zbek adabiyotida chin ma’noda inqilob yasagan mardonavor, haqiqatparvar, milliy shoirdir. Uning betakror she’riy kashfiyotlari asrlar osha millatimizning bosh g‘oyalariga xizmat qiladi, Turkiston adabiyotining zarvarag‘iga aylangan bu durdonalar abadiyat mulkiga aylandi. Adabiyot ham ibodat ekanligini chuqr anglagan barhayot shoirimizning ovozi manguga Sulaymontog‘ qadar yuksalib turaveradi.

### **2.3. Hozirgi o‘zbek she’riyatida Turkiston mavzusining davom ettirilishi, ko‘lamdorligi**

Ey tolib, sen axtargan yo‘l Makkaga emas  
Turkistonga olib boradi. ( Hofiz Sheroyziy )

Turkiylar aylanib yana Turkiston tomon yo‘l buraveradi, toki unga yetmagunlaricha. Axir, qon yurkdan chiqib yana unga qaytaveradi. Bugun ham zamoaviy ijodda Turkiston mavzusi to‘xtagani yo‘q, uning orzusi, uning birligini niyat qilish Turklikka xos. Bir paytlar Rauf Parfi va Shavkat Rahmon ijodida eng yuksak cho‘qqida turgan, mavzu – og‘riq bugun ancha ko‘lamdorlik kasb etmoqda, davom ettirilmoqda, turkiy qardoshlar birligi yo‘lida niyatlar qilinmoqda. Zero, she’riyatda bugun bu mavzu davomiyligi katta yoshli ijodkorlar bilan birgalikda yosh ijodkorlar orasida ham ko‘p uchratishimiz mumkin. Ularning ijodida bu mavzuning mohiyati qanday, qanday hislar bor, ijodida qanday o‘rin tutmoqda – ularda qo‘llangan tasvit vositalari, poetik obrazlar biz uchun muhim. Axir, Rauf Parfi bir she’rida turkiylar quyoshi balqib chiqmasmi deya buni davom ettiradigan, kelajak avlod unitib yubormaydimi deya yurak dardlarini to‘kadi:

Dengizi qurib bitdi,  
Daryolari oqmasmi,  
Nahot bizni yer yutdi,  
Qodir xudo boqmasmi?

Rauf Parfi bu she’rida lirik qahramon ruhiyatini bo‘linib ketgan Turkiston kengliklari uzra zulm ko‘paygani, bo‘lingan qardoshlar ustidan bugun bemalol kulishyotganidan “Qodir Xudo boqmasmi?” deya kuyib yonyotgan holatda tasvirlaydi. Turkistonni bo‘ldilar,

Parchalandi bemajol.  
Ustimizdan kuldilar  
Bu yovuzlar bemalol  
Chiqmasmi quyosh balqib?..

Hozirgi o‘zbek she’riyatida bir qator katta yoshli ijodkorlar bilan birgalikda yosh ijodkorlar ijodini o‘rganar ekanmiz, ularda ham bu davom etyotganligini ko‘ramiz, xususan: Zebo Mirzo, Amir Xudoyberdi, Adiba Umarova, Orifjon Komil, Xurshid Abdurashid, Jontemir, Rahmaddin Abrayev, Shahriyor Shavkat, Suhrob Ziyo, Mehrinoz Abbosova kabi bir qator ijodkorlarda uchratishimiz mumkin. Albatta, she’riyatda ularning bu ijodiy na’munalaridagi lirik qahramon ruhiyati, tasvir

vositalari, poetik obrazlari muhim. Bugungi zamon bilan hamnafas o‘laroq qardosh xalqlarning fikriy birligini, yaqin aloqada bo‘lishini, turkiylar uchun asl makon bo‘lgan Turkiston birligi orzusi yuraklarida o‘chmas iz qoldirgan. Xususan, parchalar keltirib o‘tamiz:

### TURON

Turklikning mukaddas o‘chog‘i Turon.

Abdurauf Fitrat

O‘ngimda ruhimga o‘q otgan fikr,

Ko‘nglimga bir yorug‘ cho‘g‘ otgan fikr.

Uyqumda qonimni uyg‘otgan fikr:

«Turklikning muqaddas o‘chog‘i Turon»...

... Ko‘kiga turnalar «qur-qur»lab botgan,  
Otganda kamoni bexato otgan.

Temurday xoqonlar qirqirlab yotgan,  
Turklikning beshigi, quchog‘i Turon.

Halima Xudoyberdiyeva 1993

Rahmatli shoiraning bu she’rida lirik qahramon Turon kengliklari turklikning o‘chog‘I ekanligini, bu uyqularida ham uyg‘otgan fikr ekanligini aytmoqda.

Uyqichi go‘zal

Uyg‘on go‘zal, toki sen bilan

Ko‘z ochsinlar Turon alplari.

Qaddi bo‘lsin osmonday baland,

Yurt ishqil-a yonsin qalblari...

Amir Xudoyberdi bu she’rida uyquchi go‘zalni ramz sifatida gavdalantiradi va lirik qahramon yurt qaddini osmonday baland bo‘lishini istaytdi, Turon alplari asriy kishanlarini yechishini, g‘aflat to‘nini uloqtirishini va endi tole – birlashish tonggi qarshilasin demoqda quyidagi misralarida:

... Yechib otsin egnidan toki

Asriy kishan, g‘aflat to‘nini.

Tafakkuri, ongi, idroki

Qarshilasin tole tongini!

Amir XUDOYBERDI

Ustoz shoirlar ijodidagi ushbu she'rlardan olingan bu bandlar ichida ulkan dardlar davomi, og'riqli xayol izlari, Turkiston qayg'ulari, turkiylar anduhlari cho'g'larini ko'rishimiz mumkin.

### UYG'URLARIM

Turkistondan qudrat ketdi, fikrat ketdi,  
Cho'lpon ketdi, Sog'uniy-u Fitrat ketdi...

...Turkistonni bo'lib-bo'lib xo'rladilar,  
Istehzoli kulib-kulib xo'rladilar....

Ijodkor bunda lirik qahramonni qardosh do'sti holidan xabar ololmayotgani, bir kun sening boshingdan sitamlar ketajak deya Olloh o'zi yordamchiliginu, yana qayta Cho'lponlar, Fitratlar tug'ilishini aytadi:

Uyg'urimga Olloh o'zi yordamchidir,  
Sabr bersin, jon jigarim, ozroq chida.  
Ko'rguliklar o'tar kun ham yaqindir-o!  
Bu xo'rliklar bitar bir kun, inshaallo...  
Turkistonni Rabbim o'zi yana siylar,  
Kelar yana Fitrat, Cho'lpon, Sog'uniyalar.  
Xurshid Abdurashid

Quyidagi she'ridan olingan misralarida esa hamma narsam bor: ruhim turkiy, yuragim turkiy, qo'llarim turkiy deydi, ammo...

Turkiy yuragim bor, turkiy shuurim,  
Hatto ruhim turkiy, o'zga shonim yo'q.  
Musht bo'lib tugilgan qo'llarim turkiy,  
Vodarig', birgina Turkistonim yo'q...  
Xurshid Abdurashid

desa, og'riqli javoblar bersa, quyidagi she'ridagi misralarida ham lirik qahramon Turkiston kam sonli bolasining yodida qolyotganidan yozg'iradi, turkiyman desam, menga ishonmaslar deydi... Ammo, lirik qahramon umidi bor, albaata, turkiy yuraklarda sen uchun muhabbat daraxti o'sar deydi. Daraxt bormi, demak yo'qolish yo'qdir:

Turkiston, sen faqat uch-to'rt bolangning  
Yuragida qolding, ay sho'rlik o'ika...

...Turkiyman desam ham ishonmas birov,  
Esini yebdi der qilmayman shubha...

...Turkiston, xayollar ichra eng hursan,  
 Turkiston, orzular ichra eng go‘zal.  
 Turkiy yuraklarda abadul abad  
 Sen uchun muhabbat daraxti o‘sar!  
 Xurshid Abdurashid

Umuman olganda hozirgi o‘zbek she’riyatida Turkiston mavzusining davomiyligi va ko‘lamdorligi borasida yaxshigina taasurotlar olsa bo‘ladi. Ijodkorlar o‘rtasida mavzu erkinligi, turfaligi, o‘z uslublarini topayotganligi quvonarli holat. Ayniqsa yosh ijodkorlar ham o‘z ovoziga ega bo‘lib she’riyatga kirib kelishi o‘zbek she’riyatini yuksaltiradi. Turkiston mavzusining yortilishi ham turfa hislarda, uslublarda ko‘zga tashlanadi:

...Oqmay qo‘yar peshonamdan ter,  
 Guvranadi ichimda bo‘ron.  
 Zangor osmon,  
 Ostimda pok yer,  
 Ko‘kayimda vatanim — Turon!  
 Jontemir

Bundan ko‘rinadiki, ilodkorlar o‘rtasida o‘z ovoziga ega shu bilan birgalikda Rauf Parfi va Shavkat Rahmonni ustoz bilib ularning ohanggi bilan yozyotganlar ham bor. Yuqordagi kabi o‘z ohanggiga ega she’rlarda tasvirlangan Turon – Turkiston manzaralari, dard, og‘riqlari chizmalari, ularda qo‘llangan lirik qahramon xarakteri xuxusiyatlari e’tiborga molik. Ko‘ksida, ko‘kayida Turkiston bo‘lgan farzandlar turkiy qardoshlar haqiqat ko‘ziga achondir tik boqishlariga ishonishadi, chorlashadi:

Mudramang, ayniqsa, ayni lahzada,  
 Eng sovuq isyonlar etmoqda huruj.  
 Qop-qora dunyoni solib larzaga  
 Boshlanur biz kutgan muqaddas urush...

...Sochilib yotibsiz, asov turklarim...

deya anduh chekadi, qop-qora dunyoga urush boshlangan payti biz sochilib yotibmiz, lekin ishonongki, bu dimiqqan onglar yechiladi, idrokka suron qayta kiradi demoqda:

Ishoning, dimiqqan onglar yechilur,  
 Quyilur idrokning shashtiga suron.  
 G‘alaba sharobi qonib ichilur  
 Va ko‘m-ko‘k tulporda qaytadi Turon!  
 Shahriyor Shavkat  
 ...Faqat xayolimda bir yorug‘ yurt bor,  
 Uning nomi Turon, besh ming yil avval  
 Qashqir terisini yopingan alplar  
 G‘ururin sinchlarga qalab tiklagan...  
 Suhrob Ziyo

She’riyatda mavzular turfa, turfa ranglar bor, lekin Vatan mavzusidan gap ketar ekan qalbning eng chuqurlaridan so‘zlar kelladi, o‘zi bilan og‘riqlarni, baxtlarni, armonlarni o‘ralashtirib olib chiqadi. Yuqoridagi she’r misralarida ham lirik qahramon – shoir yuragini tasvirlab kelmoqdaki, Turon kengliklari yurak og‘riqlarini bosa oladi.

Kibor majlislarning va’dasi ulkan,  
 Gul kabi ko‘ringan xas-alaflar bor.  
 Elningmas, sultonning olqishin kutgan,  
 Quruq savlatlar bor, quruq gaplar bor.

Lek har dam ko‘ngilda umidim hoqon,  
 Chin xalq bor, xalqqa xos yuksak dardlar bor.  
 Onalar qornida o‘sar Turkiston,  
 Otalar pushtida Turonmardlar bor.  
 Mehrinoz Abbosova

Mard-jasur o‘g‘lonlari bo‘lgan Turon – Turkiston o‘lkasi, go‘zal va olovqalb, o‘tkir so‘zli qizlarni ham tarbiyalab bergen. Ijodda ham boshqalardan qolishmaydigan va hech ham qoliplashmaydigan ijodkorlar yetishtirib bera oladi. Yuragida Vatan ohanglari jo‘sh ura oladi, o‘z so‘ziga ega bo‘la oladi. She’rda tasvirlangan quruq savlatlar har yerni bosgan, sulton olqishini kutib xalqni unutgan... Lekin, lirik qahramon umidi so‘nmagan – bir chin xalq bor, hali onalar qornida Turkiston o‘sar, otalar pushtida Turonmardlar bor, demakki umid bor.Ular bor ekan turkiylar yuragi Turkistonga ham zarurat bor, uni kuylaguvchi, asraguvchi, chorlaguvchi o‘g‘lonlar tug‘ilaveradi.Va bu bora-bora tarixiy zaruratga aylanadi, xuddi ustoz shoirlar – Rauf Parfi va Shavkat Rahmon aytganidek tug‘ilaveradi:  
 Tarxiy zarurat

Har bir qum zarrasi, hatto ranglar ham  
 Zarur payt tug‘ilgan payg‘ambarlar ham...

...O‘z yering g‘animdan qolmaskan ortib  
 Zarurat tug‘ilsa olarsan tortib!..

deya xitob qiladiki, bugun tarxiy zarurat paydo bo‘lmoqda, qonlar to‘lib bo‘ldi Turkiston ishqiga, endi kelgandir zarurat... Bo‘laklarga bo‘linib tashlangan makon – Turkiston ona kabi bugun kerak bolalariga:

...Bo‘laklarga bo‘lib tashlangan makon  
 Bugun zaruratsan Ona Turkiston  
 Rahmaddin Abrayev

## X U L O S A

“Lirikada shoirning shaxsiyati bиринчи о‘рнда турди, биз hamma narsani faqat u orqaligina qabul qilamiz va anglaymиз.<sup>18</sup> Rauf Parfi va Shavkat Rahmon she’rlarida shoir shaxsi yaqqol sezilib turganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ладики, Turkiston haqidagi she’rlarida shoir xarakteri, o‘tkir nigohi, buyuk dardi, darveshona olami, zulfiqor ruhi sezilib turdi. Bitiruv malakaviy ishiga tahlilga olingan she’rlarida shoir mahoratini ko‘rsatib beradigan nuqtalar juda ko‘p, biz ular orqali she’rlarida so‘z izlab o‘tirmasdan, zo‘rakillikka yo‘l qo‘ymasdan, yurak so‘zlarini aytا olganini ko‘rishimiz mumkin.

Bilmoqchi bo‘lsangiz agar shoirlik, jasorat so‘zining tarjimasidir (Shavkat Rahmon), degan edi shoir. She’rlarida, qarashlarida, fikrlarida ana shunday jasorat ko‘rsatgan ikki ustoz ijodkor ijodida Turkiston mavzusining tasvirlanishi, ifodalanishi, davriy davomiyligi, shaxs va lirk qahramon uyg‘unligi, tasvir vositalari va bugungi kun ijodkorlariga qanday ta’sir o‘tkazgani borasida qisqacha ko‘rib chiqdikki, bundan chiqqan xulosa Turkiston dardining – mavzusining yo‘qolmasligi, yanga yana qayta bosh urib kelishi, she’rlardagi eng sara metaforalar, ramzlar, tashbehlardir. Bu bitiruv malakaviy ishdan quyidagi xulosalar chiqdi desak bo‘ladi:

- Rauf Parfi va Shavkat Rahmon ijodida eng yuksak o‘rin Turkiston mavzusi ekanligi oydinlashdi va buning shaxsiyatiga ham singib ketganligini ko‘rib chiqdik.
- Rauf Parfi va Shavkat Rahmonning Turkiston haqidagi she’rlarining davriylik holatini aniqladik – bu davriylikdagi mohiyat va maqsad nimaligini oydinlashtirdik.
- Rauf Parfi va Shavkat Rahmon ijodiga va shaxsiga mustaqillikkacha va undan keyin qanday munosabatda bo‘linganligini o‘rganib chiqdik.
- Rauf Parfi va Shavkat Rahmonning Turkiston haqidagi she’rlarida o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy butunlikni, unda qo‘llangan poetik obraz va lirk qahramon holatini o‘rganib chiqdik.
- Bir mavzuga ikki ijodkorndagi munosabat va ifodalash usuli qandayligini ko‘rib chiqdik, bunda qo‘llanilgan tasvir vositalar, so‘zlar ifodalagan ma’no kengliklarining ahamiyatini bilib oldik.

---

<sup>18</sup> Belinskiy B.G.Tanlangan asarlar. – T.: Adabiyot va sa’nat, 1955. – B.134.

- Bu she'rlardagi lirik qahramon va shoir shaxsi qanday ekanligini, she'r va hayot uyg'unligini – ikki ijodkorda ko'rib chiqdik.
- Turkiston mavzusining mustaqillikdan avval qanday ahamiyat kasb etganligini, bugungi zamonaviy she'riyatdagi o'rni qandayligi va ijodkorlar o'rtasidagi ahamiyatini o'rgandik.

Rauf Parfi va Shavkat Rahmonning Turkiston haqidagi she'rlari badiiyati va o'zbek she'ryatiga qo'shgan taraqqiyotini o'rganish bilan jahon she'riyatiga ham qanday ta'sir qilganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida xulos qilishimiz mumkinki, ikki ustoz ijodkor ijodida bu mavzuning butun og'riqlari, tavsiflari, ta'riflari yorqin chizgilarda chizilganligini ko'rishimiz, o'sha davr she'riyatiga va keyingi davrga qanday ta'sir qila olganini bilishimiz mumkin. Zero, Turkiston turkiy xalqlarning qayta – qayta bosh uradigan yagona maskanidir!

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Karimov I.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Shavkat Mirziyoyev.Nutqlaridan.
3. Ulug‘bek Hamdam.Shoir – tuzalmas haqiqatparast. Maqola
4. R.Parfi. Sakina. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 2013
5. Obidaxon Fayzullayeva.Hozirgi o‘zbek she’riyatida sonnet. –T.:Turon zamin ziyo, 2014. – B.26
6. Парфи. Р. Сўнги видо. – Т.: Алишер навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутбхонаси нашриёти. 2006.
7. Sh.Rahmon. Saylanma. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahriri, 1997
8. Sh.Rahmon. Yurak qirralari. – T.:Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 1981
9. Belinskiy V.G.Maqolalar. – T.: O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 1948.
10. Jamoa.Adabiyot nazariyasi.2 tomlik. 1-tom. – T.: Fan, 1978.
11. R.Parfi.Sukunat. – T.: Yulduzcha, 1898.
12. Shodmon Otabek.Do‘rmon hangomalari.T.2016. “Sharq” nashriyoti
13. Obidaxon Fayzullayeva.Hozirgi o‘zbek she’riyatida sonet. –T.:Turon zamin ziyo, 2014.
14. To‘ychiyev U. Adabiy tur va janrlar. –T.: Fan, 1992.
15. R.Parfi.Tavba. – T.: Yozuvchi, 2000.
16. Qozoqboy Y.Ochqich so‘z.- T.: Tafakkur, 2019.
17. N. Nimjonov.Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. – T.: Fan, 2007.
18. Belinskiy B.G.Tanlangan asarlar. – T.: Adabiyot va sa’nat, 1955.
19. Rauf Parfi. – Ona Turkiston. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 2013.
20. Rauf Parfi.Ko‘zlar – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 1978
21. Rauf Parfi.Qaytish. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 1981
24. Sh.Rahmon. Hulvo. - T.: Yosh gvardiya, 1978.
25. Shavkat Rahmon.Uyg‘oq toshlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa’nat nashriyoti, 1986.
26. Ziyo.uz ma’lumotlari
- 27.Xurshid davron kutubxonasi.